

O‘zbekiston respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirining
2025 yil «23»iyundagi
№180 son buyrug‘iga
Ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ONKOLOGIYA VA
RADIOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**"T-HUJAYRALI LIMFOMALAR" NOZOLOGIYASI
BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR**

TOSHKENT – 2025

«TASDIQLAYMAN»
Respublika ixtisoslashtirilgan
onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy
tibbiyot markazi direktori
M.N. Tillyashayxov



_____ 2025 yil

"T-HUJAYRALI LIMFOMALAR" NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR

TOSHKENT – 2025

Mundarija

T-HUJAYRALI LIMFOMALARNI TASHXISLASH VA DAVOLASH BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL	5
T-HUJAYRALI LIMFOMALAR UCHUN TIBBIY ARALASHUVLAR BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL	97
T-HUJAYRALI LIMFOMALARNING TIBBIY PROFILAKTIKASI VA REABILITATSIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL	110
T-HUJAYRALI LIMFOMALAR UCHUN PALLIATIV YORDAM BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL	124

**"T-HUJAYRALI LIMFOMALAR"
NOZOLOGIYASI BO‘YICHA DIAGNOSTIKA
VA DAVOLASH MILLIY KLINIK
PROTOKOLLAR**

TOSHKENT – 2025

1. Kirish qismi

- Qisqacha annotatsiya. T-hujayrali limfomalar bo'yicha ushbu milliy klinik protokol dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga asoslangan zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga muvofiq T-hujayrali limfomalarni nazorat qilish va oldini olishga qaratilgan o'z vaqtida va sifatli diagnostika, terapevtik taktika, palliativ yordamni ta'minlash uchun yagona konsepsiyani shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

T-hujayrali limfomalar nozologiyasi bo'yicha ushbu milliy klinik protokol O'zbekiston Respublikasi tuman, viloyat va respublika sog'liqni saqlash muassasalarining ambulator va statsionar sharoitida tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

XKT-9.10.11 kod (lar) i:

XKT-10		XKT-9	
Kodi	Nomlanishi	Kodi	Nomlanishi
C84.0	Zamburug'simon mikoz	40.11	Limfatik strukturalar biopsiyasi
C84.1	Sezari sindromi	40.21	Bo'yin chuqur limfa tugunini kesib olish
C84.4	Periferik T-hujayrali limfoma	40.23	Qo'ltiq osti limfa tugunini kesib olish
C84.5	Boshqa va aniqlashtirilmagan T-hujayrali limfomalar	40.24	Chov limfa tugunini kesib olish
C84.6	Anaplastik yirik hujayrali limfoma ALK+	40.29	Boshqa limfa tuzilmasini oddiy kesib olish
C84.7	Anaplastik yirik hujayrali limfoma ALK-	40.30	Limfa tugunini lokal kesib olish
C86.0	Ekstranodal NK/T- hujayrali limfoma, nazal turi	40.11	Limfa tuzilmasini biopsiyasi
C86.1	Gepatolienal T-hujayrali limfoma	41.50	To'liq splenektomiya
C86.2	T-hujayrali limfoma enteropatiya bilan assosiasiyalangan	86.11	Teri va teri osti to'qimalarini biopsiya qilish
C86.5	Angioimmunoblast T- hujayrali limfoma	41.98	Suyak ko'migidagi boshqa muolajalar
		99.791	Autotransplantasiya uchun gemopoetik o'zak hujayralarini tayyorlash

Yuklash (XKT-10 dan havola): <https://mkb-10.com/index.php?pid=1456>

XKT-11	
Etuk T- yoki NK-hujayrali hosilalar	
2A90	Etilgan T-hujayrali limfoma, aniq turlari, tugunsimon yoki tizimli

2A90.0	T-hujayrali prolimfositar leyukoz
2A90.1	T-hujayrali yirik donachali limfositar leyukoz
2A90.2	Surunkali NK-hujayrali limfoproliferativ kasalliklar
2A90.3	Agressiv NK-hujayrali leyukoz
2A90.4	Bolalarda Epshteyn-Barr virusiga musbat tizimli T-hujayrali limfoma
2A90.5	Inson T-hujayra limfotrop virusi 1-turi bilan bog‘liq kattalardagi T-hujayrali limfoma yoki leyukoz
2A90.6	Nazal turdagi ekstranodal NK/T-hujayrali limfoma
2A90.7	Enteropatiya bilan assosiasiyalangan T-hujayrali limfoma
2A90.8	Gepatosplenik T-hujayrali limfoma
2A90.9	Angioimmunoblast T-hujayrali limfoma
2A90.A	Anaplastik yirik hujayrali limfoma, ALK-musbat
2A90.B	Anaplastik yirik hujayrali limfoma, ALK-manfiy
2A90.S	Periferik T-hujayrali limfoma, boshqa aniqlanmagan
Etilgan T- yoki NK-hujayrali limfomalar va limfoproliferativ kasalliklar, birlamchi teri spetsifik turlar	
2B00	Teri osti pannikulitga o‘xshash T-hujayrali limfoma
2B01	Mikoz zamburug‘simon
2B02	Sezari sindromi
2B03	Teridagi birinchi darajali CD30-musbat T-hujayrali limfoproliferativ kasalliklar
2B03.0	Teridagi birinchi darajali CD30-musbat anaplastik yirik hujayrali limfoma
2B03.1	Limfomatoid papulez
2B0Y	Teridagi birinchi darajali boshqa aniqlangan etilgan T- yoki NK-hujayrali limfomalar va limfoproliferativ kasalliklar
2B0Z	Teridagi birinchi darajali noaniq yoki aniqlanmagan T-hujayrali limfoma
2B2Y	Boshqa aniqlangan etilgan T- yoki NK-hujayrali o‘smalar
2B32.Z	Aniqlanmagan immunodefisit bilan bog‘liq limfoproliferativ kasalliklar
Yuklash (XKT-10 dan havola): https://icd.who.int/browse/2025-01/mms/ru#944754984	

- Bayonnomani ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish sanasi:

2025-2028 yil.

- Milliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish uchun mas‘ul bo‘lgan tashkilot: Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

- MILLIY KLINIK PROTOKOL VA STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISHDA XISSA QO‘SHGANLAR:

- Multidissiplinar ishchi guruh a'zolari:

1. Yusupbekov Abrorbek Axmedjanovich – t.f.d., professor, RIOvaRIATM direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari;
2. Nishanov Daniyar Anarbayevich – t.f.d., RIOvaRIATM direktorining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari;
3. Kamishov Sergey Viktorovich – t.f.d., RIOvaRIATM kimyo terapiya bo'limi ilmiy rahbari;
4. G'ofur-Oxunov Mirzaali Alyorovich – t.f.d., professor, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini oshirish markazi onkologiya kafedrasini mudiri;
5. Raximov Nodir Maxamatovich – t.f.d., Samarqand shahar hududlar aro Xospisi direktori;
6. Ismailova Munajat Hayotovna – k.m.n., Toshkent Tibbiyot akademiyasi onkologiya kafedrasini mudiri.

- Multidissiplinar mualliflar ro'yxati, qo'shimcha hammualliflar jamoasi:

1. Xodjayev Abduvoxid Valiyevich – t.f.d., professor, O'zbekiston onkologlar Assotsiatsiyasi raisi;
2. Kamishov Sergey Viktorovich – t.f.d., RIOvaRIATM Kimyoterapiya bo'limi rahbari;
3. Tuydjanova Xojinisa Xashimovna –RIOvaRIATM 1-kimyo terapiya bo'limi mudiri;
4. Imamov Olim Abdilxodjayevich –RIOvaRIATM 1-kimyo terapiya bo'limi yetakchi mutaxassisi;
5. Israilova Feruza Abduxamidovna –RIOvaRIATM 1-kimyo terapiya bo'limi yetakchi mutaxassisi;
6. Xushvakova Sabina Utkirovna – RIOvaRIATM 1-kimyo terapiya bo'limi yetakchi mutaxassisi;
7. Ravshanova Nasiba Berdiyrovna – RIOvaRIATM 2-kimyo terapiya bo'limi mudiri;
8. Izrailbekova Kamila Shavkatovna – RIOvaRIATM 2-kimyo terapiya bo'limi yetakchi mutaxassisi;
9. Norbekova Munira Xamroqulovna – RIOvaRIATM 2-kimyo terapiya bo'limi yetakchi mutaxassisi;
10. Niyozova Shaxnoza Xamoydinovna – RIOvaRIATM 2-kimyo terapiya bo'limi yetakchi mutaxassisi;
11. Mansurova Gulya Baxodirovna –RIOvaRIATM radiologiya bo'limi mudiri;

- Taqrizchilar:

Respublikadan:

Isxakov Eldor Jasurovich – t.f.d., tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini oshirish markazining Onkologiya va Gematologiya kafedrasini mudiri;

Horijdan:

Denish Pendxarkar – professor, Hindiston onkologlari Assotsiatsiyasi prezidenti, Sarvadoya instituti direktori, Faridobod, Hindiston;

- **Multidissiplinar ishchi guruh yig‘ilishida MILLIY KLINIK PROTOKOLni loyihasini muhokamasi bayonnomasidan ko‘chirmaning raqami va sanasi:** ishchi guruhning 5-sonli yig‘ilishi 2025 yil 22 mayda bo‘lib o‘tgan.

- **Onkologiya tibbiyot yo‘nalishlari kengashlari yig‘ilishida AGREE usulida muhokamadan o‘tkazilganligi xulosasi va yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma:** Ilmiy Kengashning 5-sonli yig‘ilishi 2025 yil 25 mayda bo‘lib o‘tgan.

Milliy klinik protokol va standartlarni texnik baholash bo‘yicha ekspert xulosasi va taxrirlash:

Respublikadan:

Islamov Xurshid Jamshidovich – t.f.n., Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi koloproktologiya bo‘limi ilmiy rahbari;

Horijdan:

Kim Sergey – Seul Milliy universitetining Bundang gospitali tashqi aloqalar departamenti professori.

Milliy klinik protokol va standartlarni Sog‘liqni saqlash vazirligining Ekspert guruhi mutaxassislari tomonidan o‘tkazilgan baholash bo‘yicha ekspert xulosasi:

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari Basitxanova E.E, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

Sog‘liqni saqlash vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtirilgan Kengash yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma (sana, №raqam).

QISQARTMALAR RO‘YXATI:

AlloSKT	–	Allogen suyak ko‘migi transplantatsiyasi
ALT	–	Alaninaminotransferaza
ALK	–	Anaplastik limfoma kinazalari

AST	–	Aspartataminotransferaza
AutoSKT	–	Autologik suyak ko‘migi transplantatsiyasi
FQTV	–	Faollashgan qisman tromboplastin vaqti
AT-3	–	Antitrombin-3
AYHL	–	Anaplastik yirik hujayrali limfoma
AIBL	–	Angioimmunoblast limfoma
PSYA	–	Progressiyasiz yashovchanlik
JSST	–	Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti
YUKV	–	Yuqori kavak vena
YUDKT	–	Yuqori dozali kimyoterapiya
EBV	–	Ebshteyn Barr virusi
GGTP	–	Gammaglyutamiltranspeptidaza
Gr	–	Grey
GO‘H	–	Gemopoetik o‘zak hujayralar
G-KSO	–	Granulotsitar koloniya stimullovchi omil
DVYHL	–	Diffuz V-yirik hujayrali limfoma
O‘b	–	O‘lchov birligi (yedinita izmereniya)
MIY	–	Me‘da ichak yo‘li
IFT	–	Immunoferment tahlil
IFT	–	Immunofenotiplash
IXL	–	Immunoxemilyuminissensiya
IGX	–	Immunogistoximiya
KP	–	Klinik protokol
KT	–	Kompyuter tomografiya
KIH	–	Kislota-ishqoriy holat
SK	–	Suyak ko‘migi
kXL	–	Klassik Xodjkin Limfomasi
LDG	–	Laktatdehidrogenaza
NT	–	Nur terapiya
LPK	–	Limfoproliferativ kasallik
CHQ	–	Chap qorincha
Mg	–	Milligramm
HB	–	Halqaro birlik
KXT	–	Kasalliklarning xalqaro tasnifi
MI	–	Millilitr
XMM	–	Xalqaro me‘yorlashtirilgan munosabat
MRT	–	Magnit-rezonans tomografiya
IMETL	–	Ichakning monomorf epiteliotrop T-hujayrali limfomasi
NXL	–	Noxodjkin limfomasi
QUT	–	Qon umumiy tahlili

KQA	–	Ko'krak qafasi a'zolari
QBA	–	Qorin bo'shlig'i a'zolari
KCHA	–	Kichik chanoq a'zolari
UYA	–	Umumiy yashovchanlik
PXT	–	Polikimyoterapiya
TJ	–	To'liq javob
PR	–	Progressiya
PZR	–	Polimeraza zanjir reaksiyasi
PET/KT	–	Pozitron-emmission tomografiya/kompyuter tomografiya
PV	–	Protrombin vaqti
PTI	–	Protrombin indeksi
PTHL	–	Periferik T-hujayrali limfoma
PUVA	–	Psorolen+ultrofiolet+elektromagnit nurlari
RKI	–	Randomizatsiyalangan klinik izlanishlar
OMS	–	Orqa miya suyuqligi
ECHT	–	Eritrotsitlarni cho'kish tezligi
KFT	–	Koptokchalar filtratsiyasi tezligi
YUQTT	–	Yurak-qon tomir tizimi
ST	–	Stabilizatsiya
YUN	–	Yurak yetishmovchiligi
SRO	–	S-reaktiv oqsil
YAMP	–	Yangi muzlatilgan plazma
GO'HT	–	Gemopoetik o'zak hujayralir transplantatsiyasi
SKT	–	Suyak ko'migi transplantatsiyasi
T-LL	–	T-limfoblast limfoma
EATHL	–	Enteropatiya bilan assotsiatsiyalangan T-hujayrali limfoma
TTN	–	Terini total nurlantirish
ID	–	Ishonchlilik darajasi
UTDG	–	Ultra tovush doplerografiya
UTT	–	Ultratovush tekshirish
UFN	–	Ultrafiolet nurlantirish
FGDS	–	Fibrogastroduodenoskopiya
FDG	–	Ftordezoksiglyukoza
FTHL	–	Folikulyar T-hujayrali limfoma
XT	–	Ximioterapiya
MNS	–	Markaziy nerv sistemasi
QJ	–	Qisman javob
EKG	–	Elektrokardiografiya
EXO-KG	–	Exokardiografiya
EBV	–	Ebshteyn Barr virusi

EKF	–	Ekstrakorporal fotoferoz
OxG	–	Odam xoriongonadotropini
YAMRT	–	Yadro-magnit rezonans tomografiya
Ara-C	–	Sitarabin
ALK	–	Anaplastik limfoma kinase
CALGB	–	Cancer and Leukemia Group B
CD	–	Differensirovka klasteri
DUSP-22	–	Dual specificity protein phosphatase
EBMT	–	European Group for blood and Marrow
ECOG	–	Eastern Cooperative Oncology Group
EBV	–	Ebstein barr virus
EMA	–	Epithelial membrane antigen
FISH	–	Fluorescence in situ hybridization
GrB	–	Granzyme B
HLA	–	Inson leykotsitar antigenlari tizimi
IFRT	–	Involved-field radiation therapy
NCCN	–	National comprehensive cancer network
NOS	–	Not otherwise specified
NPM	–	Nucleophosmin
NK	–	Natural killer
ProBNP	–	Miya natriy uretik gormoni
Perf	–	Perforin
PINK	–	Prognostic index for natural killer cell lymphoma
TRM	–	Treatment-related mortality
TCR	–	T-cell rearrangements
TFH	–	T-follicular helper

- Mazkur nozologiya bo'yicha protokolning foydalanuvchilari:

- Shifokor-onkologlar;
- Shifokor gematologlar;
- Shifokor- kattalar jarrohlari;
- Umumiy amaliyot shifokorlari;
- Sog'liqni saqlash tashkilotchilari;
- Shifokor-terapevtlar;
- OTM talabalari, magistrlar, ordinator va aspirantlar.

- Mazkur nozologiya bo'yicha bemorlarning toifasi: (18 yoshdan) kattalar.

- Dalillarga asoslangan tibbiyotning, dalillari darajasi shkalasi:

Dalillarning ishonchlilik darajalarini (DID) baholash o'ldhovi diagnostika usullari (diagnostik aralashuvlar) uchun

DID	Batavsil
1	Malumot nazorati ostida o'tkaziladigan tadqiqotlarning tizimli tekshiruvi yoki randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarning metatahlil yordamidagi tizimli tekshiruvi
2	Ma'lumotlarning usuli yoki alohida tasodifiy klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi alohida tadqiqotlar muntazam ravishda ko'rib chiqish, metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlar bundan mustasno
3	Ma'lumotnoma usuli bilan ketma-ket nazoratsiz tadqiqotlar yoki o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan tadqiqotlar yoki tasodifiy bo'lmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogort tadqiqotlar
4	Taqqoslab bo'lmaydigan tadqiqotlar, klinik holatning tavsifi.
5	Faqat harakat mexanizmi yoki ekspertlarning fikrini asoslash mavjud.

Profilaktika, davolash va reabilitatsiya (profilaktika, davolanish, reabilitatsiya aralashuvlari) uchun dalillarga ishonch darajasini baholash o'ldhovi

DID	Batavsil
1	Metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlarni muntazam ko'rib chiqish.
2	Alohida tasodifiy klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarning tizimli sharhlari, metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlar bundan mustasno.
3	Tasodifiy bo'lmagan qiyosiy tadqiqotlar,
4	Taqqoslab bo'lmaydigan tadqiqotlar, klinik hodisa yoki
5	qator hodisalar tavsifi, «hodisa-kontrol» tadqiqotlari.

Профилактика, ташхис, даволаш ва реабилитация усуллари бўйича тавсияларнинг ишонтириш даражасини баҳолаш ўлчови (профилактика, даволаниш, реабилитация аралашувлари)

DID	Batavsil
A	Kuchli tavsiya (ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik mezonlar (natijalar) muhim ahamiyatga ega, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega, ularning qiziqish natijalari bo'yicha xulosalari kelishilgan).
B	Shartli tavsiya (ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik choralari (natijalari) muhim emas, hamma tadqiqotlar ham yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega emas va / yoki qiziqish natijalari bo'yicha ularning xulosalari kelishilmagan).
C	Zaif tavsiya (tegishli sifat dalillarining yo'qligi, ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik mezonlari (natijalari) muhim emas, barcha tadqiqotlar past uslubiy sifatga ega va qiziqish natijalari bo'yicha ularning xulosalari kelishilmagan).

2. Asosiy qism.

- Kirish

T-hujayrali limfoma Noxodkin limfomalar sinfiga kiradi. Bu tananing limfoid to'qimalarining turli xil xavfli kasalliklarini o'z ichiga olgan geterogen guruhdir. Ular turli xil kechish xususiyatlari, tuzilmalari va alomatlariga ega. T-hujayra patologiya keng klinik xilma-xillikka ega bo'lgan saratonning noyob shakli sifatida tasniflanadi. Kasallik uchun rivojlanishning agressiv tempi xarakterli.

Klinik ko'rinishlarining o'ziga hosligi birlamchi o'choqning joylashgan joyiga va tarqalganligiga bog'liq. Ko'pgina hollarda periferik, retroperitoneal, mediastinal limfa tugunlari shikastlanadi.

Periferik T-hujayrali (T-limfotsitar) limfoma barcha inson limfomalarining 10-15% ni tashkil etadigan kasalliklar guruhiga kiradi. Kasallik nomi o'sma T hujayralaridan iborat ekanligini ko'rsatadi. T-limfotsitlar immunitetning eng ashaddiy kurashchilaridir. Chunki ular begona bakteriyalarni va tananing o'z kasal hujayralarini yo'q qiladi. Daraxtdagi olma singari, yosh hujayraning yetuk T-limfotsitga aylanishining (pishib yetilishining) butun davri bir necha bosqichlardan o'tadi. Har bir bosqichda hujayralar buzilishi va kasal o'sma hujayralari rivojlanishi mumkin. Periferik T-hujayrali limfomada o'sma yetuklikning oxirgi bosqichida, yetuk T hujayrasi darajasida paydo bo'ladi. O'sma T-limfotsitlari periferik (aylanma) qonda uchraydigan normal hujayralarga o'xshaydi va shuning uchun ham "periferik" deb nomlanadi.

- Nozologiyaning umumiy ta'rifi

- **Nodal periferik T-hujayrali limfomalar** limfoproliferativ kasalliklarning geterogen guruhini tashkil etib, yetuk (posttimik) T-hujayralardan rivojlanadi va noxodjekin limfomalarning 10% ni tashkil qiladi [1]. Eng tarqalgan PTHLning subtipi aniqlashtirilmagan (26%), so'ngra angioimmunoblast T-hujayrali limfoma (19%), anaplastik yirik hujayrali limfoma, ALK-musbat (7%), AYHL, ALK-manfiy (6%), va enteropatiya bilan assotsirlangan T-hujayrali limfoma (<5%)[2].

- **Teri T-hujayrali limfomalari** noxodjekin limfomalar guruhi bo'lib, ular asosan terida mavjud bo'lib, ba'zan rivojlanib, limfa tugunlari, qon va ichki organlarni zararlaydi [3].

- **Periferik T-hujayrali limfoma, nospetsifik** - JSST tasnifida nazarda tutilgan klinik va morfologik toifalarning hech biriga mos kelmaydigan yetuk T-limfotsitlaridan paydo bo'ladigan geterogen limfomalar guruhidir. Odatda yosh o'tganlarda ko'proq rivojlanadi, o'rtacha yoshi 60 yosh. Erkaklar kasal bo'lish ehtimoli ko'proq. Kasallik

ko'pincha har qanday lokalizatsiya limfa tugunlarining ko'payishi bilan namoyon bo'ladi, suyak iligi (20-30%), taloq, ekstranodal to'qimalar (teri, oshqozon-ichak trakti, kamroq o'pka, markaziy asab tizimi) ikkinchi marta ishtirok etadi, kasallik ko'pincha V belgilari mavjudligi bilan davom etadi [4,5] PTHLN V-hujayra limfomalarga qaraganda yomon umumiy yashovchanlik va progressiyasiz yashovchanlik bilan namoyon bo'ladi.

- **Angioimmunoblast T-hujayrali limfoma** - periferik T limfotsitlar fenotipiga ega hujayralar tomonidan hosil bo'ladmi. Odatda germinal markazlarda joylashgan follikulyar T-xelperlardan rivojlanadi. Ushbu limfoma odatda qarilarda (60-70 yosh) uchraydi. Erkaklar biroz ko'proq kasallanishadi. Epshteyn-Barr virusi ehtimoliy etiologik omil hisoblanadi va 80-95% hollarda V hujayralarda topiladi [4]. Ko'pincha laboratoriya tahlillarda tarqalgan limfadenopatiya, shuningdek, jigar, taloq va suyak iligining shikastlanishi bilan namoyon bo'ladi. Poliklonal gipergammaglobulinemiya, Kumbs-musbat gemolitik anemiya, sovuq aglyutininlar, krioglobulinlar, silliq mushaklarga antitanalar va yadroga qarshi antitanalar, shuningdek revmatoid omillar aniqlanadi [4]. Prognoz PTHLNga o'xshaydi. Bir muassasada davolangan PTHL bilan 199 bemorlarning ma'lumotlarni o'rganib, 5-yillik UYA va PSYA o'rganilganda, ATHL bilan og'rikan bemorlarda 13% va 7% ni tashkil qilgani aniqlangan [36]

- **Anaplastik yirik hujayrali limfoma** - U ikki xil turli nozologik shaklni, ya'ni - AYHL, ALK+ va AYHL, ALK- ni ifodalaydi. Ularning asosiy farqi ALK proteinining ekspressiyasi bor yoki yo'qligidadir. ALK-NMP ximer oqsili 2 va 5 xromosomalar orasidagi translokatsiya mahsulotidir. 2-xromosomadagi r23 lokusi anaplastik limfoma kinazasini, postnatal davrda fiziologik ekspressiyasi markaziy nerv tizimi hujayralari bilan chegaralanadigan leykotsitar tirozin kinazalarga yaqin bo'lgan transmembran retseptorni kodlaydi. 5-xromosomaning r35-lokusi yadroda va yadrocha tashkilotchilar sohasida lokalizatsiyalangan kislotra fosfoproteinini kodlovchi nukleofosmin genini saqlaydi. ALK oqsili odatda faqat asab to'qimalarida aniqlanganligi sababli, uning limfomada aniqlanishi t(2;5) translokatsiya tufayli abberant gen ekspressiyasini ko'rsatadi. AYHL bilan og'rikan bemorlarning aksariyati kasallikning III yoki IV bosqichlariga ega (65% ALK-musbat va 58% ALK-manfiy). Ular ko'pincha tizimli simptomlar va ekstranodal shikastlanishlar bilan bog'liq [8]. AYHL bilan umumiy 5 yillik yashovchanlik darajasi, ALK+ bo'lganda 70-80%, ALK manfiy turida umumiy 5 yillik yashovchanlik yomonroq, ya'ni 49%. Biroq, DUSSP-22 restrukturizatsiyasi bilan og'rikan bemorlarda prognoz yaxshiroq, 5 yillik UYA 90% va TP63 restrukturizatsiyasi bilan og'rikan bemorlarda prognoz yomon va u 17% ni tashkil qiladi holos [4].

- **Ekstranodal NK/T-hujayrali limfoma nazal tipi** – limfoma asosan ekstranodal lokalizatsiyali bo'lib, Epshteyn Barr virusi bilan assotsiatsiyalangan bo'ladi. Ushbu limfomalarning ko'pchiligi NK-hujayralar fenotipiga ega bo'ladi, qolganlari esa - sitotoksik T-limfotsitlar fenotipini saqlaydi. Ko'pincha osiyo kelib chiqi shli insonlarda uchraydi. Eng yuqori kasallanish o'rta yoshli odamlar (44-54 yosh) orasida qayd etiladi. O'sma bolalar va yoshlarda rivojlanishi mumkin. Erkaklar ko'proq kasal bo'lishadi. Deyarli barcha holatlarda aniqlanadigan EBV - eng muhim etiologik omildir. Ko'pincha burun bo'shlig'i va paranazal sinuslar, tanglay va nazofaringsda invaziv o'sish bilan o'sma sifatida namoyon bo'ladi. O'smaning destruktiv tabiati va uning yaraga moyilligini hisobga olib, u ilgari "letal o'rta granuloma" deb nomlangan. Teri, oshqozon-ichak trakti va bo'yin limfa tugunlariga tarqalishi mumkin. Retsidiv ko'pincha disseminatsiya bilan

birga keladi. Boshning yuz sohasi oʻrta strukturalaridan tashqarida uchrovchi (ekstranazal) NK/T-hujayrali limfoma kam uchraydi va ular terini, yumshoq toʻqimalar, MIT yoki tuxumdonlarni zararlaydi [4].

- **Enteropaiya bilan assotsiatsiyalangan T-hujayrali limfoma** – ichakning birlamchi T-hujayrali limfomasi seliakiya bilan ogʻriydigan bemorlarda uchraydi. Ushbu limfoma Gʻarb mamlakatlarida keng tarqalgan (seliakiya kasalligining kegn tarqalganligi tufayli) va kamdan-kam hollarda Osiyoda uchraydi. Koʻpincha keksa odamlar (60-70 yosh) kasal boʻlib, erkaklar biroz ustunlik qiladi. Baʼzi bemorlarda seliakiya kasalligidan oldin enteropatiya bilan bogʻliq T-hujayrali limfoma, boshqalarda seliakiya kasalligi, shu jumladan aniq klinik koʻrinishlarsiz, limfoma bilan bir vaqtda tashxislanadi. Kasallik odatda qorin ogʻrigʻi, diareya, malabsorbsiya yoki ilgari glyutensiz diyetaga ijobiy javob bergan bemorlarda malabsorbsiyaning qaytalanishi bilan namoyon boʻladi. U koʻpincha ingichka ichakda (och va yonbosh), kamroq yoʻgʻon ichak va oshqozonda rivojlanadi. 30% hollarda limfoma qorin boʻshligʻining limfa tugunlariga, kamroq suyak iligi va boshqa organlarga tarqaladi [4].

- **Ichakning monomorf epiteliotrop T-hujayrali limfomasi** - seliakiya kasalligi bilan bogʻliq boʻlmagan birlamchi T-hujayrali limfomadir. Bu turi Osiyoda koʻproq uchraydi. Erkaklar orasida kasallanish ustunlik qiladi. Ingichka ichak koʻproq zararlanadi, kamroq yoʻgʻon ichak va oshqozonda uchraydi. Limfoma ichakda diffuz tarqaladi. Uzoq disseminatsiya kuzatilishi mumkin. Koʻpincha tutqich limfa tugunlari zararlanadi. Oʻrtacha umr koʻrish davomiyligi 1 yildan kam [4].

- **Gepatoliyenal T-hujayrali limfoma** – kam uchrovchi agressiv limfoma. U barcha T-hujayrali limfomalarning 1-2% ini tashkil etadi. Koʻpchilik hollarda u gamma-delta sitotoksik T limfotsitlaridan rivojlanadi. Yosh yigitlarning kasallanish ehtimoli koʻproq, oʻrtacha boshlanish yoshi 35 yosh. Limfadenopatiyasiz gepatosplenomegaliya xarakterlidir. Bu kasallik deyarli har doim suyak iligi shikastlanishi bilan birga keladi [4].

- **Zamburugʻli mikozi** - birlamchi epidermotrop T-hujayrali limfoma boʻlib, serebriform yadroli kichik va oʻrta T-limfotsitlarning proliferatsiyasi bilan tavsiflanadi [9]. Zamburugʻli mikozi teri T-hujayrali limfomasining Eng keng tarqalgan shakli boʻlib, barcha noxodjkin limfomalarning 1% ini, birlamchi teri limfomalarining 50% ini va teri T-hujayrali limfomalarning 65% ini tashkil qiladi. Zamburugʻli mikozi holatlarining 75% dan ortigʻi 50 yoshdan oshgan bemorlarda kuzatiladi, kasallikning oʻrtacha yoshi 55-60 yoshni tashkil qiladi. Zamburugʻli mikozi bolalar va oʻsmirlarga ham kuzatilishi mumkin (1% hollarda) [9].


- **Sezari sindromi** – bu terining T-hujayrali limfomasi boʻlib, eritrodermiya, generalizatsiyalangan limfadenopatiya va qonda sirkulyatsiyalanuvchi havfli T-limfotsitlar (Sezari hujayralari) mavjudligi bilan tavsiflanadi [9]. Sezari sindromi barcha birlamchi teri limfomalarining 5% dan kam qismini tashkil etadi. Asosan erkak bemorlarning ustunligi boʻlgan keksa odamlar kasal boʻlib, kasallikning oʻrtacha yoshi 60-65 yoshni tashkil qiladi [9].

- Klinik tasnifi

JSST tasnifi boʻyicha T/NK-hujayrali limfoproliferativ kasalliklar 3 ta asosiy

subguruhlarga bo‘linadi: leykemizatsiya bilan kechadigan, asosan ekstranodal yoki тери, asosan nodal [10].





1-surat. NK/T-hujayrali limfomalar tasnifi





BTHL shaklarini aniqlash bilan birga, nodal BTHL bemoring har birida Ann Arbor tasnifi bo‘yicha kasallik bosqichi [11], shuningdek, BTHL uchun prognostik modellarning biri yordamida havf guruhi aniqlanishi kerak [12-15].

Limfomalarning Ann Arbor bo‘yicha tasnifi, Cotswold modifikatsiyasi [3]

I bosqich	Bitta limfatik soha yoki strukturaning 1 zararlanishi (1 - surat)	
-----------	---	--

II bosqich	Diafragmaning bir tomonidagi 3 ikki va undan ko'p 2 limfatik soha yoki strukturaning zararlanishi	
III bosqich	Diafragmaning har ikkala tomonidagi 4 limfatik soha yoki strukturaning zararlanishi	
IV bosqich	<ul style="list-style-type: none"> • Limfa tugunlari ishtirokidagi yoki ishtirokisiz bir yoki bir nechta ekstralimfatik a'zolarining disseminatsiyalangan (ko'p fokusli) shikastlanishi. • Uzoq (regionar bo'lmagan) limfa tugunlarining shikastlanishi bilan ekstralimfatik a'zoning izolyatsiyalangan shikastlanishi. • Jigar va/yoki suyak ko'migining shikastlanishi. 	
Barcha bosqichlar uchun		
A	B-bosqich belgilarining yo'qligi.	
B ⁵	<p>Bitta yoki undan ko'p quyidagi simptomlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Yallig'lanish belgilarisiz kamida uch kun davomida 38 dan yuqori isitma. • Tungi profuz terlash. • So'ngi 6 oy davomida 10% tana massasiga ozish. 	
E ⁶	<p>Lokal (yagona) ekstranodal shikastlanish (faqat I-II bosqichlarda):</p> <ul style="list-style-type: none"> • Faqat regionar limfa tugunlari shikastlangan holda, bitta segment ichidagi bitta ekstralimfatik a'zo yoki to'qimalarning lokal shikastlanishi. • I yoki II bosqichlarda qo'shni a'zo yoki to'qimalarning cheklangan ekstranodal ishtiroki bilan. 	

S	Taloqning shikastlanishi (I-III bosqichlarda)	
X ⁷	Massiv (bulky) o'smali shikastlanish – diametri 10 smdan katta o'choq yoki mediastinal- torakal indeks ⁸ 1/3 dan yuqori	

- ¹ Limfa tuzilmalariga limfa tugunlari, taloq, ayrisimon bez, Valdeyer halqasi, chuvalchangsimon o'sma, Peyer pilakchalari kiradi.
- ² NXLning ikkinchi bosqichida arab raqamlarida zararlangan limfa sohalari sonini qo'shimcha ravishda ko'rsatish kerak (1-surat) (masalan, II bosqich₄).
- ³ Ko'ks oralig'i - bitta limfa sohasi, bronxopulmonal limfa tugunlari - alohida limfa sohalari (Cotswold modifikatsiyasi bilan aniqlashtirish).
- ⁴ Yuqori abdominal limfa tugunlari (jigar darvozasi, taloq, charvi l/t) ni bilan kuzatiluvchi III₁-bosqichni va qorin parda orti limfa tugunlarining shikastlanishi bilan kuzatiluvchi III₂ bosqichni ajratish tavsiya etiladi.
- ⁵ Teri qichishishi intoksikatsiya belgilaridan chiqarilgan.
- ⁶ Katta konglomeratlarni ajratib ko'rsatish (X) va mahalliy ekstranodal zararlanishlar (Ye) faqat mahalliyashtirilgan I va II bosqichlar uchun muhim, chunki u yanada intensiv terapiyani tanlashni belgilaydi.
- ⁷ Katta konglomeratlarni ajratib ko'rsatish (X) va mahalliy ekstranodal zararlanishlar (Ye) faqat mahalliyashtirilgan I va II bosqichlar uchun muhim, chunki u yanada intensiv terapiyani tanlashni belgilaydi.
- ⁸ Mediastinal-ko'krak indeksi – eng keng nuqtadagi o'rtacha soya kengligining uning eng keng nuqtasidagi ko'krak diametriga nisbati – standart to'ppa -to'g'ri rentgenogrammalarda Th 5-6 darajasida.

**Periferik T-hujayrali limfomalar guruhini stratifikatsiyasi.
Halqaro prognostik indeks [12].**

LPKlar uchun Halqaro prognostik indeks. Havf omillari (1 balldan)	Prognostik guruh	Ballar
Yoshi > 60 let	Past havf	0 yoki 1

LDG konsentratsiyasi > norma	Past	2
Somatik statusi - ECOG 2--4	Oraliq	3
AnnArbor bo'yicha bosqichi - III-IV	Yuqori	4 yoki 5
Ekstranodal shikastlanish >1 guruh		

Aniqlashtirilmagan BTHL uchun prognostik indeks [13].

Havf omillari (1 balldan)	Prognostik guruhlar	Umumiy yashovchanlik
Yoshi > 60 let	Guruh 1 - 0 ball	62%
LDG konsentratsiyasi > norma	Guruh 2 - 1 ball	53%
Somatik statusi - ECOG 2--4	Guruh 3 - 2 ball	33%
Suyak ko'migi zararlanganligi	Guruh 4 - 3 yoki 4 ball	18%

Aniqlashtirilmagan BTHL uchun modifikatsiyalangan prognostik indeks [14].

Havf omillari (1 balldan)	Prognostik guruh
Yoshi > 60 let	Guruh 1 - 0 ball
LDG konsentratsiyasi > norma	Guruh 2 - 1 ball
Somatik statusi - ECOG 2-4	Guruh 3 - 2 balla
Ki- 67	Guruh 4 - 3 yoki 4 ball

NK/T – hujayrali limfoma uchun PINK – prognostik indeksi [15].

Havf omillari (1 balldan)	Prognostik guruh
Yoshi > 60 let	Past havf 0-1 ball
Bosqich - III-IV	Oraliq havf 2 ball
Uzoq limfa tugunlariningi zararlanishi	Yuqori havf 3 va undan yuqori ball
Kasallikning ekstranazal tipi	

NK/T – hujayrali limfoma uchun PINK-Ye – prognostik indeksi [15].

Havf omillari (1 ball dan)	Prognostik guruh
Yoshi > 60 let	Past havf 0-1 ball
Bosqich - III-IV	
Uzoq limfa tugunlarining zararlanishi	
Kasallikning ekstranazal tipi	Oraliq havf 2 ball
Ebshteyn Barr virusi DNKsi	Yuqori havf 3 va undan yuqori ball

KLINIK BOSQICHLASH [16]:

Klinik bosqichi	T (teri)	N (limfa tugunlar)	M (ichki a'zolar)	B (qon)
IA (terining chegaralangan shikastlanishi)	T1 (dog‘, papula va/yoki tana yuzasi 10%dan kam dog‘)	N0	M0	B0 yoki B1
IB (faqat teri)	T2 (dog‘, papula va/yoki tana yuzasi 10%dan kam dog‘)	N0	M0	B0 yoki B1
IIA	T1-2	N1-2	M0	B0 yoki B1
IIB (o‘sma bosqichi - l/t)	T3 (1 diametri 1 sm dan katta 1 tadan ko‘p l/t)	N0-2	M0	B0 ёк yoki и B1
IIIA (eritrodermiya)	T4 (eritemaning tana yuzasining 80% dan ortiq qismida qo‘shilishi)	N0-2	M0	B0
IIIB (eritrodermiya)	T4 (eritemaning tana yuzasining 80% dan ortiq qismida qo‘shilishi)	N0-2	M0	B1
IVA (CC)	T1-4	N0-2	M0	B2

IVA(CC/non CC)	T1-4	N3	M0	B0 yoki B1 yoki B2
IVB (visseral kasallik)	T1-4	N0-3	M1	B0 yoki B1 yoki B2
	Yirik hujayralarning transformatsiyasi (yirik hujayrali transformatsiya)			

- Tashhislash mezonlari:

- Gistologik va immunogistokimyoviy tadqiqotlar limfoma tashxisini verifikatsiyasi uchun juda muhimdir. O'sma jarayonining tarqalishini aniqlash va bemorlarni xavf guruhlariga ajratish uchun qo'shimcha usullar o'tkazish kerak [3].
- Tashxis jarrohlik yo'li bilan olib tashlangan (rezeksiya qilingan) limfa tugunini yoki ekstranodal shikastlanish joyini o'rganish asosida belgilanishi kerak, shu bilan birga material miqdori formalinda fiksatsiyalash va parafin bloklarini tayyorlash uchun yetarli bo'lishi kerak. Adekvat immunogistokimyoviy tadqiqotni o'tkazish majburiydir.
- T-hujayrali limfomalar uchun IGX paneli quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: CD20, CD3, CD10, BCL6, Ki-67, CD5, CD30, CD2, CD4, CD8, CD7, CD56, CD21, CD23, EBER-ISH, TCRP, TCR5, PD1/CD279, ALK, TP63 kappa/lambda oqava sitometriya usulida hujayra yuzasi markerlarini tahlili bilan yoki usiz, CD45, CD3, CD5, CD19, CD10, CD20, CD30, CD4, CD8, CD7, CD2; TCRaP, TCRyS [17].
- BTHL subtipini aniqlash uchun qo'shimcha immunogistokimyoviy tekshirish usullari, shu jumladan, T-follikulyar xelperlar kelib chiqish markerlari: CXCL13, ICOS, va sitotoksik T-hujayrali markerlar (TIA-1, granzyme-B, perforin) [17].
- Shikoyatlar, anamnez va fizik tekshiruv ma'lumotlari limfoproliferativ kasalliklarni tashxislash va differensial tashxislashda muhim rol o'ynaydi, ammo spetsifik emas va shuning uchun diagnostik mezonlarga kirmaydi [9].
- Tashxis biopsiya materialini morfologik va immunogistokimyoviy tekshirish asosida belgilanadi va JSSTning gematopoetik va limfoid to'qimalarning o'smalarining qayta ko'rib chiqilgan tasnifiga muvofiq shakllantiriladi [9].

3. Tekshiruv usullari, uslublari, tibbiy muolajalar yondashuvlari va tashxislash jarayonlari.

- Shikoyatlar va anamnez:

- Limfa tugunlarining kattalashishi (ko‘pincha og‘riqsiz);
- balg‘amsiz yo‘tal-ko‘ks oralig‘ining kattalashgan limfa tugunlari tomonidan nafas yo‘llarining siqilishi tufayli yuzaga keladi;
- yuz, bo‘yin, qo‘llarning shishishi - yuqori kovak venaning siqilishi tufayli yuzaga keladi;
- umumiy holsizlik, charchoqning kuchayishi;
- poykilodermiya (dog‘li pigmentatsiya, teleangioektaziyalar, teri atrofiyasi); alohida toshmalarning bir vaqtning o‘zida progressiyalanish va regressiyalanish fenomeni;
- bir nechta sohani egallagan ko‘plab toshmalar;
- toshmalarning terining quyosh nuri tushmaydigan sohalarida xarakterli joylashishi;
- toshmalar toshishi bilan keluvchi teri qichishishi;
- yuz o‘rta strukturalari bo‘lmish burun, og‘iz, burun-halqum, orbita bo‘shlig‘i sohalarida destruksiya (nazal tipdagi NK/T-hujayrali limfoma uchun hos).

- Fizikal tekshirishlar:

- **B-simptomlar:** asosan kechqurun va tunda tana haroratining ko‘tarilishi; tana massasining kamayishi, ya‘ni ozish (tana vaznining avvalgi holatidan 10% va undan ortiq kamayishi)
- Toshmalarning soni va o‘lchamlari (dog‘lar va blyashkalarining mavjudligi BM bilan assotsiatsiyalanganlik belgisi bo‘lishi mumkin); toshmalarning eng ko‘p joylashadigan joyi — qo‘l va oyoqlar. 25% holatlarda teri toshmalarining spontan regressiyasi kuzatiladi;
- Paypaslanuvchi limfa tugunlari va organomegaliyalarni aniqlanishi. Ular bitta yoki bir nechta tugundan iborat bo‘lishi va yaralanishga moyil bo‘lishi mumkin;
- Turli lokalizatsiyalardagi limfa tugunlarining kattalashishi;
- Jigar va taloq o‘lchamlarining kattalashishi.

- Laborator tekshirishlar:

- Qon umumiy tahlili - surtmada leykoformula, trombositlarni hisoblash: UQT oddiy diapazonda bo'lishi mumkin, yoki o'rtacha neytrofil leykotsitoz bo'lishi mumkin. ECHTning sezilarli oshishi ko'pincha qayd etiladi. Anemiya kam uchraydi va bu mustaqil salbiy prognostik belgi hisoblanadi.
- Qon biokimyoviy tahlili - o'sma lizis sindromini, shuningdek, birga keladigan organlarning shikastlanishini aniqlash uchun laktat dehidrogenaza, umumiy oqsil, albumin, kreatinin, mochevina, elektrolitlar, siydik kislotasi.
- Gistologik tekshirish – LPKni morfologik shaklini verifikatsiya qilish uchun;
- Immunogistokimyoviy tekshirish – LPKni morfologik shaklini verifikatsiya qilish uchun.
- O'sma jarayonining tarqalishini (bosqichini) aniqlashning majburiy komponenti suyak iligi trepanobioptatining gistologik tekshiruvidir. Dastlabki tekshiruv vaqtida biopsiyani bilateral o'tkazish tavsiya etiladi. Suyak ko'migi birlamchi shikastlanganda trepanobiopsiyani restadiyalash paytida va terapiya oxirida bajarish kerak. Suyak iligi punktating morfologik tekshiruvi trepanobioptatning gistologik tekshiruvi o'rnini bosmaydi. [9].
- Periferik qon IFT - Sezari sindromi uchun Sezari sindromiga xos bo'lgan immunofenotipli sirkulyatsiyadagi limfotsitlarni aniqlash majburiydir;

- Instrumental tekshiruvlar:

- PET/KT – kasallikning boshlanishida jarayonni aniqroq bosqichlash, shuningdek davolanishga javobni adekvat baholash uchun, shu jumladan kasallikning qaytalanishiga shubha qilingan taqdirda, tumorotrop radiofarm preparat (RFP) bilan kompyuter tomografiya bilan birlashtirilgan pozitron emission tomografiyasi (PET/KT) zarur [3, 14-16].
- Kontrastli KT (qorin bo'shlig'i organlari, kichik chanoqni) – agar PET/KT ning iloji bo'lmasa, kasallikni bosqichini aniqlash va o'sma o'choqlari mavjudligi, hajmi va tarqalishini aniqlash uchun bo'yin, ko'krak, qorin organlari va kichik chanoq (kontrast bilan) KTsinini o'tkazish tavsiya etiladi [3].
- Periferik va qorin bo'shlig'i limfa tugunlarining ultratovush tekshiruvi - limfa tugunlari hajmining oshishi va tuzilishining o'zgarishini o'rganish.
- Bosh miya MRTsi – bosh miyani shikastlanishiga gumon bo'lganda bajariladi.

- Statsionar darajada asosiy tekshirish usullari:

1. QUT leykoformula va trombositlar miqdorini hisoblash bilan;
2. Qon biokimyoviy tahlili (natriy, kaliy, kalsiy, glyukoza, mochevina, kreatinin, siydik kislotasi, umumiy oqsil, albumin, umumiy bilirubin, bevosita bilirubin, LDG, AST, ALT, SRB, ishqoriy fosfotaza);
3. AVO tizimi bo'yicha qon tuguhini aniqlash;
4. Rezus-faktorni aniqlash;
5. Peshob umumiy tahlili;
6. Koagulogramma (ACHTV, PV, MNO, PTI, fibrinogen);
7. Koptokcha filtratsiyasi tezligini aniqlash;
8. IFA yoki IXL usulida virusli gepatit B va C markerlarini aniqlash
9. IFA usulida OIV-infeksiyani aniqlash (HIVAg/anti-HIV);
10. B va S virusli gepatitlari uchun PZR (sifatli)
11. Zahmga serologik reaksiyalar majmuasi;
12. Bioplatni gistologik tekshirish (limfa tuguni, hosilani)*
13. Yonbosh suyagi qirrasining gistologik tekshiruvi**
14. Bioplatni immunogistokimyoviy tekshiruvi (limfa tugunlari, hosila, trepanobioplatni);
15. EKG;
16. ExoKG;
17. Qorin bo'shlig'i, buyraklar UTTsi;
18. Butun tana PET/KTsi***
19. Kontrastli KT ****

- Ko'rsatmalarga ko'ra qo'shimcha tekshiruv usullari:

PZR usulida Ebshteyn-Barr virusi, 1-2 tip herpes, sitomegalovirus, toksoplazmoz;

1. V va S gepatit viruslariga PZR (miqdoriy);
2. SOVID-19ga PZR;
3. Qonni kislotasi ishqoriy holati (KIH) va gazlarga aniqlash;
4. Orqa miya suyuqligini tekshirish: likvorning umumiy tahlili +/- virusologik, bakteriologik tekshirish;
5. Bevosita va bilvosita Kumbs reaksiyasi;
6. Standart sitogeneti tekshirish;
7. FISH usulida va molekular-genetik tekshirish;
8. Qerritin, folatlar, zardob temiri, Vitamin V12ni aniqlash;
9. ProBNP
10. Prokalsitonin
11. Antitrombin III, D-dimer
12. Fertil yoshidagi ayollarda – homiladorlikka test, XGCHni aniqlash;

- 13.Miyelogramma;
- 14.Periferik qon IFTsi;
- 15.Inson T-limfotrop virusi I/II-IgG ga antitana;
- 16.Standart –sitogenetik tekshirish;
- 17.FISH va PZR usulida molekular-genetik tekshirish;
- 18.Burun yondosh bo‘liqlari rentgenografiyasi;
- 19.Ortopantomogramma;
- 20.Ko‘krak segmentini kompyuter tomografiyasi;
- 21.Bosh, bo‘yin va qorin bo‘shlig‘ini kontrastli KTsi;
- 22.FGDS;
- 23.Bronxoskopiya;
- 24.Kolonoskopiya;
- 25.Tomirlar (vena va/yoki arteriyalar) UTDGsi;
- 26.Spirografiya;
- 27.Bosh miya MRTsi;
- 28.Plevral bo‘shliq, periferik limfa tugunlar, kichik chanoq, qovuq UTTsi;
- 29.Xolter – monitorlash bilan EKG

* Agar avval o‘tkazilmagan bo‘lsa.

** Kasallikning boshlanishida (agar u ilgari bajarilmagan bo‘lsa) va qayta bosqichlash paytida (suyak iligi dastlabki shikastlanganda).

*** Kasallikning boshlanishida va qayta bosqichlash paytida bajarish kerak.

**** PET/KT o‘tkazish mumkin bo‘lmagan hollarda.

- Mutaxassislarning konsultativ ko‘ruvi uchun ko‘rsatmalar:


- **gepatolog** – jigar kasalliklarini tashxislash va davolash uchun;
- **ginekolog** – homiladorlik, metrorragiyalar, menorragiyalar, kombinatsiyalangan og‘iz kontratseptivlarini tayinlash bo‘yicha maslahat; reproduktiv tizim kasalliklarini tashxislash va davolash uchun;
- **dermatovenerolog** – teri va tanosil kasalliklarini diagnostikasi va davolash uchun;
- **infeksionist** – ko‘rsatmalarga ko‘ra;
- **kardiolog** – gipertenziya, surunkali yurak yetishmovchiligi, yurak aritmiyalarida asosiy terapiyani tuzatish/tanlash uchun; yurak-qon tomir kasalliklarini tashxislash va davolash uchun
- **nevropatolog** – ko‘rsatmalarga ko‘ra;
- **neyroxirurg** – neyroxirurgik aralashuvlar uchun ko‘rsatmalarni aniqlash;
- **nefrolog (efferentolog)** – buyrak kasalliklarini tashxislash va davolash uchun;
- **onkolog** – solid o‘smalarni tashhislash;
- **otorinolaringolog** – burun yondosh bo‘shliqlari va o‘rta quloqning yallig‘lanish kasalliklarini tashxislash va davolash uchun;

- **oftalmolog** – ko‘rishni buzilishi, ko‘z va ko‘z ortiqlarini yallig‘lanish kasalliklari;
- **psixiatr** – ruhiy kasalliklarning diagnostikasi va davolash;
- **psixolog** – ruhiy buzilishlarni tashxislash va tuzatish uchun (depressiya, anoreksiya i boshq.);
- **proktolog** – anal tirqish, paraproktit;
- **torakal jarroh** – plevral punksiya, o‘pkadan biopsiya o‘tkazishga ko‘rsatmalarni aniqlash va o‘tkazish uchun;
- **reanimatolog** – vital funksiyalarni buzilishi;
- **revmatolog** – diffuz biriktiruvchi to‘qima kasalligiga shubha bo‘lganda;
- **transfuziolog** – ijobiy bilvosita antiglobulin testida, qon quyishning samarasizligi, o‘tkir massiv qon yo‘qotishda qon quyish vositalarini tanlash;
- **urolog** – siydik chiqarish tizimining infeksiyon va yallig‘lanish kasalliklari;
- **ftiziatr** – tuberkulezni tashhislash;
- **jarroh** – jarrohlik aralashuvlar uchun ko‘rsatmalarni aniqlash;
- **yuz-jag‘ jarrohi** – tish-jag‘ tizimining infeksiyon va yallig‘lanish kasalliklari;
- **rentgenendovaskulyar diagnostika va davolash shifokori** – periferik kirish yo‘li orqali markaziy venoz kateterni o‘rnatish (PICC);

- Tashhislash algoritmi:

Tashhislash algoritmi radiodiagnostika, biopsiya va/yoki aniqlangan hosilalarni olib tashlash, so‘ngra gistologik va immunogistokimyoviy tekshirishlar yordamida hosila yoki kattalashgan limfa tugunlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Klinik holatga qarab tashhislash choralari ro‘yxati kengaytirilishi mumkin.

1-sxema. Limfoproliferativ kasalliklarni tashhislash algoritmi



- Qiyosiy tashxis va qo‘shimcha tekshiruvlarni asoslash

1-jadval. Asosiy nodal va ekstranodal yetilgan T-hujayrali o‘smalar JSSTning limfomalarning 2016 yilgi tasnifiga muvofiq, ularning asosiy xususiyatlarining qisqacha tavsifi (gistologik xususiyatlar ,immunofenotip va genetik o‘zgarishlar) [4,5,21].

Yetilgan T-hujayrali o‘smalar	Gistologik tavsifi	Kelib chiqishi	Immunogistoximicheskiye xarakteristiki	Geneticheskiye osobennosti
<p>Angioimmun oblast T-hujayrali limfoma</p>	<p>Limfoid to‘qima qisman yoki to‘liq Kichik va o‘rta o‘lchamdagi, notekis konturli yadroli, yomon aniqlanuvchi yadrochali va xira bo‘yaluvchi sitoplazmali atipik hujayralardan iborat limfoid proliferat bilan almagna bo‘ladi. Ko‘plab reaktiv-yallig‘lanish fonli hujayralar ko‘rinadi: kichik limfotsitlar, gistiotsitlar, plazmotsitlar va eozinofil granulotsitlar. O‘sma proliferatining perinodal tarqalishi xarakterli, lekin, subkortikal sinuslar saqlanib</p>	<p>Folikulyar T-xelperlar.</p>	<p>O‘sma hujayralari: CD3 +, CD4 +, TCRaP +, CD10 + (50–70%), ko‘pchilik holatlarda PD1 + (CD279), ICOS+(CD278), CXCL13 +, BCL6 + FDKning kengayishi. Tarqoq B-blastlar, ko‘pincha EBV +.</p>	<p>RHOA mutatsiyalari (ko‘pincha G17V) (50-70%). Epigenetika: TET2 (-80%), DNMT3A (~ 30%), IDH2R172 (20% -30%). Yo‘l TCR: CD28 o‘zgarishlar (mutatsiyalar va erishlar) (-30%), PLCG1 mutatsiyalar (-10% -15%), CARD11, VAV1 mutatsiyalar (bir necha %).</p>

	<p>qoladi va bu qimmatbaho diagnostik belgi hisoblanadi. Parakortikal sohada yuqori endoteliyli venulalarning tarqoq chigali hosil bo‘ladi. Limfoma hujayralari orasida odatda EBV pozitiv tarqoq V-immunoblastlar topiladi va bu virusli etiologik omil sifatida ko‘rilishiga asos bo‘ladi. Ba’zida Shternberg-Rid tipidagi hujayralar ham uchraydi. Angioimmunoblast T- hujayrali limfoma tuzilishining 3 ta gistologik varianti ajratiladi va bu uning morfogenezing turli bosqichlari sifatida qaraladi. 1-variant –limfa tugun arxitektonikasining saqlanib qolishi, limfoma hujayralari bilan o‘ralgan germinativ markazlari bo‘lgan giperplastik follikullar borligi</p>			
--	---	--	--	--

	<p>bilan tavsiflanadi. 2-variant – limfa tuguni tuzilishining o‘chirilganligi bilan tavsiflanadi. Follikullar hali mavjud, ammo ular “yonib ketgan”, regressiyalangan. 3-variant – odatda limfa tuguni tuzilishining to‘liq o‘chirilishi bilan kechadi.</p>			
<p>Folikulyar T-hujayrali limfoma.</p>	<p>O‘rta o‘lchamdagi limfoid hujayralardan iborat yetarlicha bir jinsli proliferatning nodulyarfolikulyar o‘shish tipi bilan tavsiflanadi va bu follikulyar V-hujayrali limfomalar bilan o‘xshashlikka olib keladi. T-hujayrali follikulyar limfomaning boshqa tuzilish shakli limfa tugundagi progressiv transformatsiyalangan follikulalarga o‘xshab ketadi. AIBL dan yuqori endoteliyali proliferatsiyalanuvchi</p>	<p>Folikulyar T-xelperlar</p>	<p>O‘sma hujayralari: AIBLdagi kabi kuchli fenotipli TFH. Folikula tashqarisida FDKning tarqalishi yo‘q. Tarqoq V-blastlar, ko‘pincha EBV+.</p>	<p>AIBL kabi, faqat IDH2 mutatsiyasiz, sintez SYK-ITK ~20% (t(5;9) (q33;q22)).</p>

	venulalarning yoʻqligi va follikuladan tashqarida follikulyar dendritik hujayralarning kuchli ifoalangan chigali yoʻqligi bilan farqlanadi.			
Folikulyar T-xelper immunofenotipi nodal periferik T-hujayrali limfoma	U AIBL tuzilishining baʼzi xususiyatlariga ega. Bu, birinchi navbatda oʻsma proliferatining T-zonada oʻsishini anglatadi (T-zona limfomasining morfologik ekvivalenti). Lekin oʻsmasiz reaktiv komponent, tarqoq postkapillyar venular va rivojlangan follikulyar dendritik hujayralar chigali koʻp boʻlmayli	Folikulyar T-xelperlar	Oʻsma hujayralari: CD3 +, CD4 +, TCRaP +, TFHning eng kamida 2 markeri musbat. Folikula tashqarisida FDKning tarqalishi yoʻq. V-blastlar oʻzgaruvchan tarqalgan, EBV+.	AIBL kabi, faqat IDH2 mutatsiyasiz
Anaplastik yirik hujayrali limfoma, ALK+.	ALK-pozitiv anaplastik yirik hujayrali limfoma koʻpincha perinuklear eozinofil kiritmali (Golji kompleksi) yaxshi rivojlangan sitoplazmali va orasida loviyasimon va taqasimon	Faollashgan T-hujayralar	CD30 + (100% yacheykalar), ALK +, EMA +, CD25 +, koʻpincha CD3-boshqa T-hujayrali antigenlarni umumiy yoʻqotish bilan, CD4 +/-, sitotoksik profil (TIA1 +, Perf+, GrB+), EBV-.	t(2;5) natijasida ALK sintezi (~80% holatlarda) (NPM-ALK) yoki t(2;X) (~20%) sherikning boshqa genlarini qoʻshilishi.

	<p>shakllarini uchratish mumkin bo'lgan polimorf yadroli yirik atipik limfoid hujayralardan tashkil topgan bo'ladi. Yirik hujayralardan ALK+ AYHLning "tipik" shaklidan tashqari (70%), limfogistiotsitar (10%), mayda hujayrali (10%), xodjkinsimon (nodulyar sklerozli Xodjkin limfomasini eslatadi, 1-3%), kombinirlangan (10-20%) shakllari mavjud. Kasallikning erta bosqichlarida o'sma limfa tugunini qisman zararlaydi, ko'pincha o'sma hujayralarining chekka va oraliq sinuslar bo'ylab o'sishi kuzatiladi.</p>			
		> 300 mg/m ²	Yiliga 1 marta
	-	< 200 mg/m ²	Har 5 yilda
		200 - 300 mg/m ²	Har 2 yilda
		> 300 mg/m ²	Yiliga 1 marta

Kimyoterapiya olgan bemorlar, uning sikllari orasida, qo‘llab-quvvatlovchi umumiy quvvatlovchi davolanish, muvozanatli ovqatlanish va ijobiy his-tuyg‘ularni, ehtimol psixoterapiya mashg‘ulotlarini olishlari kerak.

Limfoma bilan davolangan bemorlar, natijasidan qat’i nazar, onkogematolog tomonidan dispanser nazoratiga muhtoj. Kasallikning remissiyasiga erishgan odamlar avval har uch oyda, keyin yiliga ikki marta shifokorga tashrif buyurishadi – remissiya sifatini baholash uchun tekshiruvdan va qo‘shimcha tekshiruv usullaridan o‘tadilar. 5 yil davomida kasallikning qaytalanishining yo‘qligi odamning tuzalib ketganidan dalolat beradi va uni kuzatuvdan olib tashlash mumkin.

4) Ikkilamchi profilaktika - ushbu nozologiya bo‘yicha ikkilamchi profilaktika choralariga profilaktik ko‘riklardan o‘tish, skrining, kasallikni erta aniqlash maqsadida tekshiruvlar qilish kiradi

5) Uchlamchi profilaktika yoki Xodjkin limfomasini reabilitatsiyasi:

Davolanishdan keyin bemorlarni reabilitatsiya qilish choralari kurs davomiyligiga va saraton terapiyasining tanlangan usullariga bog‘liq. Bu juda zarur:

- Muntazam tekshiruvlar uchun onkologga tashrif buyurib turish.
- Retsidiv xavfini kamaytirish va immunitetni oshirish uchun tavsiya etilgan dori-darmonlarni qabul qilish.
- Yaxshi ovqatlanish.
- Zararli odatlarni va salbiy tashqi omillarning ta’sirini yo‘q qilish.
- Sog‘liq holatini hisobga olgan holda davolovchi shifokorning tavsiyalariga amal qilish.

2.4. Reabilitatsiya usullari va muolajalari:

Reabilitatsiyaning maqsadi:

- Shikastlangan a’zo yoki tizimning buzilgan funksiyalarini va/yoki yo‘qolgan faoliyatini to‘la yoki qisman tiklash;
- o‘tkir rivojlangan patologik jarayon tugashi bilan tana funksiyalari qo‘llab quvvatlash;

- zarar ko‘rgan organlar yoki tana tizimlarining mumkin bo‘lgan funksional buzilishlarini oldini olish, erta tashxislash va tuzatish;
- mumkin bo‘lgan nogironlikning oldini olish va kamaytirish;
- hayot sifatini yaxshilash;
- bemorning mehnat qobiliyatini saqlab qolish;
- bemorning jamiyatga ijtimoiy integratsiyasi.

3. 3-turdagi profilaktika yoki rehabilitatsiyani o‘tkazishga ko‘rsatmalar (ular profilga muvofiq belgilanadi).

Xodjkin limfomasining birlamchi profilaktikasi xavf omillarini oldini olish, surunkali yuqumli kasalliklar va asoratlarni davolash orqali LH bilan kasallanish ehtimolini pasayishiga olib keladi.

Ikkilamchi profilaktika T-hujayrali limfomasini simptomsiz va klinikadan oldingi bosqichlarda erta aniqlashga olib keladi, bunda T-hujayrali limfoma ni to‘liq davolash ehtimoli yuqori.

Uchlamchi rehabilitatsion profilaktik terapiyasi bemor yoshi, gistologik ko‘rinish bosqichidan qat’i nazar, sitostatik terapiyani olgan va/yoki tugatgan T-hujayrali limfomasi bo‘lgan barcha bemorlar uchun amalga oshiriladi.

Samaradorlikni baholash va profilaktika rejimini tuzatish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun klinik va laboratoriya profilaktik terapiyasini kuzatish tavsiya etiladi. Klinik nazoratda profilaktik almashtirish terapiyasining yetarli darajada samaradorligi to‘g‘risida qaror klinik test natijalari me‘yoridan chetga chiqish va o‘ziga xos sitostatik terapiya paytida va undan keyin bemorning somatik holatining yomonlashishi (yaxshilanmasligi) holatlarida qabul qilinadi.

3.1. Profilaktika turlarini o‘tkazishni aniqlash mezonlari (xalqaro standartlarga muvofiq, dalillarga asoslangan tibbiyot instituti ma’lumotlari):

- Xodjkin limfomasi rivojlanishining oldini olish uchun aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlar uchun birlamchi profilaktika tavsiya etiladi [1, 3]. *Tavsiyalarning ishonchliligi darajasi C (dalillarning ishonchliligi darajasi – 4);*
- Xodjkin limfomasi va / yoki kasallikning og‘ir klinik turlari bo‘lgan barcha bemorlarga nogironlik va bemorlarning o‘limini rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun maxsus terapiya asoratlarning oldini olish tavsiya etiladi [4, 11]. *Tavsiyalarning ishonchliligi darajasi C (dalillarning ishonchliligi darajasi – 4);*
- Maxsus sitostatik terapiya tugagandan so‘ng, barcha bemorlarga uchlamchi rehabilitatsiya profilaktikasini o‘tkazish tavsiya etiladi [20, 27]. *Tavsiyalarning ishonchliligi darajasi B (dalillarning ishonchliligi darajasi – 4);*

3.2. Reabilitatsiya muolajalarining bosqichi va ko‘lamini aniqlash mezonlari (faoliyat, xayot faoliyatini cheklash va sog‘liqning Xalqaro tasnifiga ko‘ra xalqaro shkalalar).

Reabilitatsiya muolajalari amalga oshiriladi:

Davo yakunlangannidan 1 keyin (har 3 oyda):

- ko‘rik (bo‘y/vazn, moyak o‘lchami, jinsiy yetilish belgilari)
- Har oy o‘z-o‘zida ko‘krak bezini tekshirish
- Qon umumiy tahlili + ECHT
- I-II bosqichda ko‘krak qafasi a‘zolari rentgenografisi / bo‘yin/ko‘krak qafasi KTsi + III-IV bosqichda qorin/kichik chanoq KTsi.
- EKG/exoKG/Xolter, LH, FSH, estrogenlar /testosteron, qalqonsimon bez gormonlari

Davo yakunlangandan keyin 2 yil:

- Har 6 oyda ko‘rik, analizlar va KT
- Har yili - mammolog, yurak, o‘pka, qalqonsimon bez faoliyatini va gormonal statusni baholash

Davo yakunlangandan keyin 3 yil:

- Har 12 oyda ko‘rik, analizlar va KT
- Har yili - mammolog, yurak, o‘pka, qalqonsimon bez faoliyatini va gormonal statusni baholash

Davo yakunlangandan keyin 4 yil:

- Har 12 oyda ko‘rik, analizlar va KT
- Har yili - mammolog, yurak, o‘pka, qalqonsimon bez faoliyatini va gormonal statusni baholash

Davo yakunlangandan keyin 5 yil:

- Katamnestik xizmatga kuzatuvga o‘tish

4. Reabilitatsiya bosqichlari va hajmlari

Xodjkin limfomasi bemorlari tajriba T-hujayrali limfomasi bilan bemorlar bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lgan gematolog, pediatr, onkolog, tibbiy psixolog, shu jumladan, turli profil mutaxassislar guruhi tomonidan nazorat qilinishi kerak [1,24]. Bemorlarni gematolog, onkolog tomonidan tekshirish yiliga kamida 2 marta o‘tkazilishi kerak; boshqa mutaxassislar tomonidan - agar kerak bo‘lsa. Bemorlarni yiliga bir marta yetarli klinik va laboratoriya jihozlariga ega ixtisoslashtirilgan onkologiya markazida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish maqsadga muvofiqdir [1,6].

Xodjkin limfomasi bilan ogʻrigan bemorlarning dispanser monitoringi quyidagilarni oʻz ichiga oladi: kasallikning qaytalanish yoki metastaz belgilari mavjudligini baholash bilan bemorning ahvolini dinamik kuzatish, sitostatik terapiyaning tugallangan sikllaridan keyin umumiy restorativ terapiya paytida noxush hodisalar mavjudligi, individual dori koʻtara olishligi monitoringi, virusli kontamizatsiya, kasallikning oʻzgarishi. bemorning psixologik yoki ijtimoiy holati, boshqa muhim tizimlarning holatini baholash talab etiladi.

Kimyo-radioterapiya asoratlarini davolash: qon parametrlarini tuzatish, ogʻiz gigiyenasi, oshqozon-ichak trakti, MIT organlari, yurak-qon tomir tizimi patologiyasi va boshqalar. va ixtisoslashgan mutaxassislariga murojaat qilish. T-hujayrali limfomasi bilan ogʻrigan barcha bemorlarni ixtisoslashtirilgan onkologiya yoki gematologiya markazida roʻyxatdan oʻtkazish va nazorat qilish tavsiya etiladi [1,3]. *Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi 5).*

5. Tibbiy profilaktika yoki reabilitatsiya darajasini koʻrsatadigan xolda tashxislash tadbirlari:

1) Dalillar darajasi kiritilgan xolda asosiy tashxislash tadbirlari:

- Trombotsitlar sonini hisoblash, leykoformula bilan UQT;
 - Qon biokimyoviy tahlili (natriy, kaliy, kalsiy, glyukoza, mochevina, kreatinin, peshob kislotasi, umumiy oqsil, albumin, umumiy bilirubin, bevosita bilirubin, LDG, AST, ALT, SRB, ishqoriy fosfotaza);
 - QBA + buyraklar, kichik chanoq, qovuq va periferik limfa tugunlar UTTsi;
 - Koʻkrak qafasi rentgen tekshiruvi;
 - Koʻkrak qafasi MSKTsi yoki butun tana PET/KTsi;
- Tavsiyalarning ishonchliligi darajasi C (dalillarning ishonchliligi darajasi 5)

2) Dalillar darajasi kiritilgan xolda qoʻshimcha tashxislash tadbirlari:

- Gepatit V, S viruslariga PZR (miqdoriy)
- Qon KIX va gazlarini aniqlash;
- Orqa miya suyuqligini tekshirish: likvor umumiy tahlili +/- virusologik, bakteriologik tekshirish;
- Fertil yoshdagi ayollar uchun - homiladorlik testi, XGCH ni aniqlash;
- T-limfotrop odam virusi I/II-IgG ga antitanalarni aniqlash
- Standart sitogenetik tekshirish;
- FISH, PZR usulida molekular-genetik tekshirish;
- Bosh, boʻyn, qorin boʻshligʻi, qorin boʻshligʻini kontrastli KTsi;
- FGDS;
- Bronxoskopiya;
- Kolonoskopiya;

- Tomirlar (vena va/yoki arteriyalar) UTDGsi;
- Spirografiya.
- Bosh miya MRTsi;
- Plevra bo‘shliqlari UTTsi;
- Xolter – monitorlovchi EKG
- Kontrastli KT

Tavsiyalarning ishonchliligi darajasi C (dalillarning ishonchliligi darajasi 5)

6. Darajasi ko‘rsatilgan xolda tibbiy profilaktika yoki reabilitatsiyaning taktikasi:

1) Dalillar darajasini ko‘rsatish bilan tavsiya qilinadigan asosiy profilaktika yoki reabilitatsiya tadbirlari:

To‘liq javob PET / KT yordamida dastlabki terapiya tugaganidan 3 oy o‘tgach tasdiqlanishi kerak [6]. *Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi 5).*

TR kuzatilishi bilan davolashni tugatgan katta T-hujayrali limfoma bemorlariga terapiya tugaganidan keyin 1 yil davomida har 3 oyda, 2 yil - har 6 oyda va undan keyin har yili onkolog yoki gematolog tomonidan kuzatilishi tavsiya etiladi [3]. *Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi 5).*

QUT, qon biokimyoviy tahliliyo yil davomida har 3 oyda o‘tkazilishi, keyin 2 yil davomida har 6 oyda va keyinchalik har yili o‘tkazib turish zarur *Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi 5).*

Bo‘yin hududida nur terapiyasi (NT) o‘tkazilgan bo‘lsa, kamida har yili TTG ni kuzatib turish tavsiya etiladi [6]. *Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi 5).*

Bo‘yin, ko‘krak qafasi, qorin bo‘shlig‘i, kichik chanoq a‘zolarining kontrastli KTsi birinchi 2 yilda har 6 oyda yoki klinik ko‘rsatmalarga ko‘ra o‘tkazib turiladi. Agar ohirgi PET/KTda Deauville bo‘yicha 4-5b kuzatilgan bo‘lsa, to‘la javobni tasdiqlash uchun, progressiya/retsdivga gumon bo‘lsa PET/KT o‘tkaziladi [6]. *Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi 5).*

2) Dalillar darajasini ko‘rsatish bilan tavsiya qilinadigan qo‘shimcha profilaktika yoki reabilitatsiya tadbirlari:

Qo‘shimcha profilaktika choralari retsdiv xavfini kamaytirish va immunitetni oshirish uchun tavsiya etilgan dori-darmonlarni qabul qilish, to‘g‘ri ovqatlanish, yomon odatlardan voz kechish va salbiy tashqi omillarga ta’sir qilish, sog‘lig‘ingiz holatini hisobga olgan holda davolovchi shifokorning tavsiyalariga amal qilish kiradi. *Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi C (dalillarning ishonchlilik darajasi 5).*

7. Profilaktika yoki reabilitatsiya tadbirlarining samaradorlik ko'rsatkichlari:

Profilaktik terapiya va reabilitatsiya dinamik nazorat tashrifi davomida klinik, laboratoriya va instrumental tekshiruvlarni kuzatish kerak. T-hujayrali limfomasi uchun profilaktika va reabilitatsiya tadbirlarining samaradorligi ko'rsatkichlari quyidagicha:

- Kasallik retsidivining yo'qligi;
- Kasallik metastazlanishining yo'qligi;
- Sitostatik va nur terapiyaning kechki asoratlarning yo'qligi;
- Bemorning va bemorning yaqin qarindoshlarining ruhiy holatining boshlang'ich pozitsiyasiga to'liq qaytish;
- Bemorning zararli odatlardan voz kechishi, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, sog'lom ovqatlanishi;
- Bemorning dinamik nazoratga o'z vaqtida murojaat qilishi;
- Xodjkin limfomasi uchun xavf omili yoki fon kasalliklari bo'lgan xolatlar/kasalliklarni o'z vaqtida davolash.

**«T-HUJAYRALI LIMFOMA»
NOZOLOGIYASI BO‘YICHA PALLIATIV
TIBBIY YORDAM MILLIY KLINIK
PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 2025

XKT-9.10.11 kod (lar) i:

XKT-10		XKT-9	
Kodi	Nomlanishi	Kodi	Nomlanishi
C84.0	Zamburug‘simon mikoz	40.11	Limfatik strukturalar biopsiyasi
C84.1	Sezari sindromi	40.21	Bo‘yin chuqur limfa tugunini kesib olish
C84.4	Periferik T-hujayrali limfoma	40.23	Qo‘ltiq osti limfa tugunini kesib olish
C84.5	Boshqa va aniqlashtirilmagan T-hujayrali limfomalar	40.24	Chov limfa tugunini kesib olish
C84.6	Anaplastik yirik hujayrali limfoma ALK+	40.29	Boshqa limfa tuzilmasini oddiy kesib olish
C84.7	Anaplastik yirik hujayrali limfoma ALK-	40.30	Limfa tugunini lokal kesib olish
C86.0	Ekstranodal NK/T- hujayrali limfoma, nazal turi	40.11	Limfa tuzilmasini biopsiyasi
C86.1	Gepatolienal T-hujayrali limfoma	41.50	To‘liq splenektomiya
C86.2	T-hujayrali limfoma enteropatiya bilan assosiasiyalangan	86.11	Teri va teri osti to‘qimalarini biopsiya qilish
C86.5	Angioimmunoblast T- hujayrali limfoma	41.98	Suyak ko‘migidagi boshqa muolajalar
		99.791	Autotransplantasiya uchun gemopoetik o‘zak hujayralarini tayyorlash

Yuklash (XKT-10 dan havola): <https://mkb-10.com/index.php?pid=1456>

XKT-11	
Etuk T- yoki NK-hujayrali hosilalar	
2A90	Etilgan T-hujayrali limfoma, aniq turlari, tugunsimon yoki tizimli
2A90.0	T-hujayrali prolimfositar leyukoz
2A90.1	T-hujayrali yirik donachali limfositar leyukoz
2A90.2	Surunkali NK-hujayrali limfoproliferativ kasalliklar
2A90.3	Agressiv NK-hujayrali leykoz
2A90.4	Bolalarda Epshteyn-Barr virusiga musbat tizimli T-hujayrali limfoma
2A90.5	Inson T-hujayra limfotrop virusi 1-turi bilan bog‘liq kattalardagi T-hujayrali limfoma yoki leykoz
2A90.6	Nazal turdagi ekstranodal NK/T-hujayrali limfoma
2A90.7	Enteropatiya bilan assosiasiyalangan T-hujayrali limfoma
2A90.8	Gepatosplenik T-hujayrali limfoma

2A90.9	Angioimmunoblast T-hujayrali limfoma
2A90.A	Anaplastik yirik hujayrali limfoma, ALK-musbat
2A90.B	Anaplastik yirik hujayrali limfoma, ALK-manfiy
2A90.S	Periferik T-hujayrali limfoma, boshqa aniqlanmagan
Etilgan T- yoki NK-hujayrali limfomalar va limfoproliferativ kasalliklar, birlamchi teri spesifik turlar	
2B00	Teri osti pannikulitga o‘xshash T-hujayrali limfoma
2B01	Mikoz zamburug‘simon
2B02	Sezari sindromi
2B03	Teridagi birinchi darajali CD30-musbat T-hujayrali limfoproliferativ kasalliklar
2B03.0	Teridagi birinchi darajali CD30-musbat anaplastik yirik hujayrali limfoma
2B03.1	Limfomatoid papulez
2B0Y	Teridagi birinchi darajali boshqa aniqlangan etilgan T- yoki NK-hujayrali limfomalar va limfoproliferativ kasalliklar
2B0Z	Teridagi birinchi darajali noaniq yoki aniqlanmagan T-hujayrali limfoma
2B2Y	Boshqa aniqlangan etilgan T- yoki NK-hujayrali o‘smalar
2B32.Z	Aniqlanmagan immunodefisit bilan bog‘liq limfoproliferativ kasalliklar
Yuklash (XKT-10 dan havola): https://icd.who.int/browse/2025-01/mms/ru#944754984	

1. Asosiy qism.

- Kirish

T-hujayrali limfoma Noxodkin limfomalar sinfiga kiradi. Bu tananing limfoid to‘qimalarining turli xil xavfli kasalliklarini o‘z ichiga olgan geterogen guruhdir. Ular turli xil kechish xususiyatlari, tuzilmalari va alomatlariga ega. T-hujayra patologiya keng klinik xilma-xillikka ega bo‘lgan saratonning noyob shakli sifatida tasniflanadi. Kasallik uchun rivojlanishning agressiv tempi xarakterli.

Klinik ko‘rinishlarining o‘ziga hosligi birlamchi o‘choqning joylashgan joyiga va tarqalganligiga bog‘liq. Ko‘pgina hollarda periferik, retroperitoneal, mediastinal limfa tugunlari shikastlanadi.

Periferik T-hujayrali (T-limfotsitar) limfoma barcha inson limfomalarining 10-15% ni tashkil etadigan kasalliklar guruhiga kiradi. Kasallik nomi o‘sma T hujayralaridan iborat ekanligini ko‘rsatadi. T-limfotsitlar immunitetning eng ashaddiy kurashchilaridir. Chunki ular begona bakteriyalarni va tananing o‘z kasal hujayralarini yo‘q qiladi. Daraxtdagi olma singari, yosh hujayraning yetuk T-limfotsitga aylanishining (pishib yetilishining) butun davri bir necha bosqichlardan o‘tadi. Har bir bosqichda hujayralar buzilishi va kasal o‘sma hujayralari rivojlanishi mumkin. Periferik T-hujayrali limfomada

o'sma yetuklikning oxirgi bosqichida, yetuk T hujayrasi darajasida paydo bo'ladi. O'sma T-limfotsitlari periferik (aylanma) qonda uchraydigan normal hujayralarga o'xshaydi va shuning uchun ham "periferik" deb nomlanadi.

2) Ushbu nozologiya kechishi jarayonida rivojlangan sindrom tavsifi:

- **Nodal periferik T-hujayrali limfomalar** limfoproliferativ kasalliklarning geterogen guruhini tashkil etib, yetuk (posttimik) T-hujayralardan rivojlanadi va noxodjkin limfomalarning 10% ni tashkil qiladi [1]. Eng tarqalgan PTHLNing subtipi aniqlashtirilmagan (26%), so'ngra angioimmunoblast T-hujayrali limfoma (19%), anaplastik yirik hujayrali limfoma, ALK-musbat (7%), AYHL, ALK-manfiy (6%), va enteropatiya bilan assotsirlangan T-hujayrali limfoma (<5%)[2].
- **Teri T-hujayrali limfomalari** noxodjkin limfomalar guruhi bo'lib, ular asosan terida mavjud bo'lib, ba'zan rivojlanib, limfa tugunlari, qon va ichki organlarni zararlaydi [3].
- **Periferik T-hujayrali limfoma, nospetsifik** - JSST tasnifida nazarda tutilgan klinik va morfologik toifalarning hech biriga mos kelmaydigan yetuk T-limfotsitlaridan paydo bo'ladigan geterogen limfomalar guruhidir. Odatda yosh o'tganlarda ko'proq rivojlanadi, o'rtacha yoshi 60 yosh. Erkaklar kasal bo'lish ehtimoli ko'proq. Kasallik ko'pincha har qanday lokalizatsiya limfa tugunlarining ko'payishi bilan namoyon bo'ladi, suyak iligi (20-30%), taloq, ekstranodal to'qimalar (teri, oshqozon-ichak trakti, kamroq o'pka, markaziy asab tizimi) ikkinchi marta ishtirok etadi, kasallik ko'pincha V belgilari mavjudligi bilan davom etadi [4,5] PTHLN V-hujayra limfomalarga qaraganda yomon umumiy yashovchanlik va progressiyasiz yashovchanlik bilan namoyon bo'ladi.
- **Angioimmunoblast T-hujayrali limfoma** - periferik T limfotsitlar fenotipiga ega hujayralar tomonidan hosil bo'ladmi. Odatda germinal markazlarda joylashgan follikulyar T-xelperlardan rivojlanadi. Ushbu limfoma odatda qarilarda (60-70 yosh) uchraydi. Erkaklar biroz ko'proq kasallanishadi. Epshteyn-Barr virusi ehtimoliy etiologik omil hisoblanadi va 80-95% hollarda V hujayralarda topiladi [4]. Ko'pincha laboratoriya tahlillarda tarqalgan limfadenopatiya, shuningdek, jigar, taloq va suyak iligining shikastlanishi bilan namoyon bo'ladi. Poliklonal gipergammaglobulinemiya, Kumbs-musbat gemolitik anemiya, sovuq aglyutinlar, krioglobulinlar, silliq mushaklarga antitanalar va yadroga qarshi antitanalar, shuningdek revmatoid omillar aniqlanadi [4]. Prognoz PTHLNga o'xshaydi. Bir muassasada davolangan PTHL bilan 199 bemorlarning ma'lumotlarni o'rganib, 5-yillik UYA va PSYA o'rganilganda, ATHL bilan og'rikan bemorlarda 13% va 7% ni tashkil qilgani aniqlangan [36]
- **Anaplastik yirik hujayrali limfoma** - U ikki xil turli nozologik shaklni, ya'ni - AYHL, ALK+ va AYHL, ALK- ni ifodalaydi. Ularning asosiy farqi ALK proteinining ekspressiyasi bor yoki yo'qligidadir. ALK-NMP ximer oqsili 2 va 5 xromosomalar

orasidagi translokatsiya mahsulotidir. 2-xromosomadagi r23 lokusi anaplastik limfoma kinazasini, postnatal davrda fiziologik ekspressiyasi markaziy nerv tizimi hujayralari bilan chegaralanadigan leykotsitar tirozin kinazalarga yaqin bo'lgan transmembran retseptorni kodlaydi. 5-xromosomaning r35-lokusi yadroda va yadrocha tashkilotchilar sohasida lokalizatsiyalangan kislota fosfoproteinini kodlovchi nukleofosmin genini saqlaydi. ALK oqsili odatda faqat asab to'qimalarida aniqlanganligi sababli, uning limfomada aniqlanishi t(2;5) translokatsiya tufayli abberant gen ekspressiyasini ko'rsatadi. AYHL bilan og'rigan bemorlarning aksariyati kasallikning III yoki IV bosqichlariga ega (65% ALK-musbat va 58% ALK-manfiy). Ular ko'pincha tizimli simptomlar va ekstranodal shikastlanishlar bilan bog'liq [8]. AYHL bilan umumiy 5 yillik yashovchanlik darajasi, ALK+ bo'lganda 70-80%, ALK manfiy turida umumiy 5 yillik yashovchanlik yomonroq, ya'ni 49%. Biroq, DUSP-22 restrukturizatsiyasi bilan og'rigan bemorlarda prognoz yaxshiroq, 5 yillik UYA 90% va TP63 restrukturizatsiyasi bilan og'rigan bemorlarda prognoz yomon va u 17% ni tashkil qiladi holos [4].

- **Ekstranodal NK/T-hujayrali limfoma nazal tipi** – limfoma asosan ekstranodal lokalizatsiyali bo'lib, Epshteyn Barr virusi bilan assotsiatsiyalangan bo'ladi. Ushbu limfomalarning ko'pchiligi NK-hujayralar fenotipiga ega bo'ladi, qolganlari esa - sitotoksik T-limfotsitlar fenotipini saqlaydi. Ko'pincha osiyo kelib chiqi shli insonlarda uchraydi. Eng yuqori kasallanish o'rta yoshli odamlar (44-54 yosh) orasida qayd etiladi. O'sma bolalar va yoshlarda rivojlanishi mumkin. Erkaklar ko'proq kasal bo'lishadi. Deyarli barcha holatlarda aniqlanadigan EBV - eng muhim etiologik omildir. Ko'pincha burun bo'shlig'i va paranazal sinuslar, tanglay va nazofaringsda invaziv o'sish bilan o'sma sifatida namoyon bo'ladi. O'smaning destruktiv tabiati va uning yaraga moyilligini hisobga olib, u ilgari "letal o'rta granuloma" deb nomlangan. Teri, oshqozon-ichak trakti va bo'yin limfa tugunlariga tarqalishi mumkin. Retsidiv ko'pincha disseminatsiya bilan birga keladi. Boshning yuz sohasi o'rta strukturalaridan tashqarida uchrovchi (ekstranazal) NK/T-hujayrali limfoma kam uchraydi va ular terini, yumshoq to'qimalar, MIT yoki tuxumdonlarni zararlaydi [4].
- **Enteropaiya bilan assotsiatsiyalangan T-hujayrali limfoma** – ichakning birlamchi T-hujayrali limfomasi seliakiya bilan og'riydigan bemorlarda uchraydi. Ushbu limfoma G'arb mamlakatlarida keng tarqalgan (seliakiya kasalligining keng tarqalganligi tufayli) va kamdan-kam hollarda Osiyoda uchraydi. Ko'pincha keksa odamlar (60-70 yosh) kasal bo'lib, erkaklar biroz ustunlik qiladi. Ba'zi bemorlarda seliakiya kasalligidan oldin enteropatiya bilan bog'liq T-hujayrali limfoma, boshqalarda seliakiya kasalligi, shu jumladan aniq klinik ko'rinishlarsiz, limfoma bilan bir vaqtda tashxislanadi. Kasallik odatda qorin og'rig'i, diareya, malabsorbsiya yoki ilgari glyutensiz diyetaga ijobiy javob bergan bemorlarda malabsorbsiyaning qaytalanishi bilan namoyon bo'ladi. U ko'pincha ingichka ichakda (och va yonbosh), kamroq yo'g'on ichak va oshqozonda rivojlanadi. 30% hollarda limfoma qorin


bo'shlig'ining limfa tugunlariga, kamroq suyak iligi va boshqa organlarga tarqaladi [4].

- **Ichakning monomorf epiteliotrop T-hujayrali limfomasi** - seliakiya kasalligi bilan bog'liq bo'lmagan birlamchi T-hujayrali limfomadir. Bu turi Osiyoda ko'proq uchraydi. Erkaklar orasida kasallanish ustunlik qiladi. Ingichka ichak ko'proq zararlanadi, kamroq yo'g'on ichak va oshqozonda uchraydi. Limfoma ichakda diffuz tarqaladi. Uzoq disseminatsiya kuzatilishi mumkin. Ko'pincha tutqich limfa tugunlari zararlanadi. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi 1 yildan kam [4].
- **Gepatoliyenal T-hujayrali limfoma** – kam uchrovchi agressiv limfoma. U barcha T-hujayrali limfomalarning 1-2% ini tashkil etadi. Ko'pchilik hollarda u gamma-delta sitotoksik T limfotsitlaridan rivojlanadi. Yosh yigitlarning kasallanish ehtimoli ko'proq, o'rtacha boshlanish yoshi 35 yosh. Limfadenopatiyasiz gepatosplenomegaliya xarakterlidir. Bu kasallik deyarli har doim suyak iligi shikastlanishi bilan birga keladi [4].
- **Zamburug'li mikozi** - birlamchi epidermotrop T-hujayrali limfoma bo'lib, serebriform yadroli kichik va o'rta T-limfotsitlarning proliferatsiyasi bilan tavsiflanadi [9]. Zamburug'li mikozi teri T-hujayrali limfomasining Eng keng tarqalgan shakli bo'lib, barcha noxodjkin limfomalarning 1% ini, birlamchi teri limfomalarining 50% ini va teri T-hujayrali limfomalarning 65% ini tashkil qiladi. Zamburug'li mikozi holatlarining 75% dan ortig'i 50 yoshdan oshgan bemorlarda kuzatiladi, kasallikning o'rtacha yoshi 55-60 yoshni tashkil qiladi. Zamburug'li mikozi bolalar va o'smirlarga ham kuzatilishi mumkin (1% hollarda) [9].
- **Sezari sindromi** – bu terining T-hujayrali limfomasi bo'lib, eritrodermiya, generalizatsiyalangan limfadenopatiya va qonda sirkulyatsiyalanuvchi havfli T-limfotsitlar (Sezari hujayralari) mavjudligi bilan tavsiflanadi [9]. Sezari sindromi barcha birlamchi teri limfomalarining 5% dan kam qismini tashkil etadi. Asosan erkak bemorlarning ustunligi bo'lgan keksa odamlar kasal bo'lib, kasallikning o'rtacha yoshi 60-65 yoshni tashkil qiladi [9].

- Klinik tasnifi



JSST tasnifi bo'yicha T/NK-hujayrali limfoproliferativ kasalliklar 3 ta asosiy subguruhlarga bo'linadi: leykemizatsiya bilan kechadigan, asosan ekstranodal yoki teri, asosan nodal [10].





1-surat. NK/T-hujayrali limfomalar tasnifi




BTHL shaklarini aniqlash bilan birga, nodal BTHL bemorining har birida Ann Arbor tasnifi bo'yicha kasallik bosqichi [11], shuningdek, BTHL uchun prognostik modellarning biri yordamida havf guruhi aniqlanishi kerak [12-15].

Limfomalarning Ann Arbor bo'yicha tasnifi, Cotswold modifikatsiyasi [3]

I bosqich	Bitta limfatik soha yoki strukturaning 1 zararlanishi (1 - surat)	
II bosqich	Diafragmaning bir tomonidagi 3 ikki va undan ko'p 2 limfatik soha yoki strukturaning zararlanishi	

III bosqich	Diafragmaning har ikkala tomonidagi 4 limfatik soha yoki strukturaning zararlanishi	
IV bosqich	<ul style="list-style-type: none"> • Limfa tugunlari ishtirokidagi yoki ishtirokisiz bir yoki bir nechta ekstralimfatik a'zolarining disseminatsiyalangan (ko'p fokusli) shikastlanishi. • Uzoq (regionar bo'lmagan) limfa tugunlarining shikastlanishi bilan ekstralimfatik a'zoning izolyatsiyalangan shikastlanishi. • Jigar va/yoki suyak ko'migining shikastlanishi. 	
Barcha bosqichlar uchun		
A	B-bosqich belgilarining yo'qligi.	
B ⁵	<p>Bitta yoki undan ko'p quyidagi simptomlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Yallig'lanish belgilarisiz kamida uch kun davomida 38 dan yuqori isitma. • Tungi profuz terlash. • So'ngi 6 oy davomida 10% tana massasiga ozish. 	
E ⁶	<p>Lokal (yagona) ekstranodal shikastlanish (faqat I-II bosqichlarda):</p> <ul style="list-style-type: none"> • Faqat regionar limfa tugunlari shikastlangan holda, bitta segment ichidagi bitta ekstralimfatik a'zo yoki to'qimalarning lokal shikastlanishi. • I yoki II bosqichlarda qo'shni a'zo yoki to'qimalarning cheklangan ekstranodal ishtiroki bilan. 	
S	Taloqning shikastlanishi (I-III bosqichlarda)	

X ⁷	Massiv (bulky) o‘smali shikastlanish – diametri 10 smdan katta o‘choq yoki mediastinal- torakal indeks 8 1/3 dan yuqori	
----------------	---	---

- ¹ Limfa tuzilmalariga limfa tugunlari, taloq, ayrisimon bez, Valdeyer halqasi, chuvalchangsimon o‘sma, Peyer pilakchalari kiradi.
- ² NXLning ikkinchi bosqichida arab raqamlarida zararlangan limfa sohalari sonini qo‘shimcha ravishda ko‘rsatish kerak (1-surat) (masalan, II bosqich₄).
- ³ Ko‘ks oralig‘i - bitta limfa sohasi, bronxopulmonal limfa tugunlari - alohida limfa sohalari (Cotswold modifikatsiyasi bilan aniqlashtirish).
- ⁴ Yuqori abdominal limfa tugunlari (jigar darvozasi, taloq, charvi l/t) ni bilan kuzatiluvchi III₁-bosqichni va qorin parda orti limfa tugunlarining shikastlanishi bilan kuzatiluvchi III₂ bosqichni ajratish tavsiya etiladi.
- ⁵ Teri qichishishi intoksikatsiya belgilaridan chiqarilgan.
- ⁶ Katta konglomeratlarni ajratib ko‘rsatish (X) va mahalliy ekstranodal zararlanishlar (Ye) faqat mahalliyashtirilgan I va II bosqichlar uchun muhim, chunki u yanada intensiv terapiyani tanlashni belgilaydi.
- ⁷ Katta konglomeratlarni ajratib ko‘rsatish (X) va mahalliy ekstranodal zararlanishlar (Ye) faqat mahalliyashtirilgan I va II bosqichlar uchun muhim, chunki u yanada intensiv terapiyani tanlashni belgilaydi.
- ⁸ Mediastinal-ko‘krak indeksi – eng keng nuqtadagi o‘rtacha soya kengligining uning eng keng nuqtasidagi ko‘krak diametriga nisbati – standart to‘ppa -to‘g‘ri rentgenogrammalarda Th 5-6 darajasida.

**Periferik T-hujayrali limfomalar guruhini stratifikatsiyasi.
Halqaro prognostik indeks [12].**

LPKlar uchun Halqaro prognostik indeks. Havf omillari (1 balldan)	Prognostik guruh	Ballar
Yoshi > 60 let	Past havf	0 yoki 1
LDG konsentratsiyasi > norma	Past	2
Somatik statusi - ECOG 2--4	Oraliq	3

AnnArbor bo'yicha bosqichi - III-IV	Yuqori	4 yoki 5
Ekstranodal shikastlanish >1 guruh		

Aniqlashtirilmagan BTHL uchun prognostik indeks [13].

Havf omillari (1 balldan)	Prognostik guruhlar	Umumiy yashovchanlik
Yoshi > 60 let	Guruh 1 - 0 ball	62%
LDG konsentratsiyasi > norma	Guruh 2 - 1 ball	53%
Somatik statusi - ECOG 2--4	Guruh 3 - 2 ball	33%
Suyak ko'migi zararlanganligi	Guruh 4 - 3 yoki 4 ball	18%

Aniqlashtirilmagan BTHL uchun modifikatsiyalangan prognostik indeks [14].

Havf omillari (1 balldan)	Prognostik guruh
Yoshi > 60 let	Guruh 1 - 0 ball
LDG konsentratsiyasi > norma	Guruh 2 - 1 ball
Somatik statusi - ECOG 2-4	Guruh 3 - 2 balla
Ki- 67	Guruh 4 - 3 yoki 4 ball

NK/T – hujayrali limfoma uchun PINK – prognostik indeksi [15].

Havf omillari (1 balldan)	Prognostik guruh
Yoshi > 60 let	Past havf 0-1 ball
Bosqich - III-IV	Oraliq havf 2 ball
Uzoq limfa tugunlariningi zararlanishi	Yuqori havf 3 va undan yuqori ball
Kasallikning ekstranazal tipi	

NK/T – hujayrali limfoma uchun PINK-Ye – prognostik indeksi [15].

Havf omillari (1 balldan)	Prognostik guruh
Yoshi > 60 let	Past havf 0-1 ball

Bosqich - III-IV	
Uzoq limfa tugunlarining zararlanishi	
Kasallikning ekstranazal tipi	Oraliq havf 2 ball
Ebshteyn Barr virusi DNKsi	Yuqori havf 3 va undan yuqori ball

KLINIK BOSQICHLASH [16]:

Klinik bosqichi	T (teri)	N (limfa tugunlar)	M (ichki a'zolar)	B (qon)
IA (terining chegaralangan shikastlanishi)	T1 (dog', papula va/yoki tana yuzasi 10%dan kam dog')	N0	M0	B0 yoki B1
IB (faqat teri)	T2 (dog', papula va/yoki tana yuzasi 10%dan kam dog')	N0	M0	B0 yoki B1
IIA	T1-2	N1-2	M0	B0 yoki B1
IIB (o'sma bosqichi - l/t)	T3 (1diametri 1 smdan katta 1 tadan ko'p l/t)	N0-2	M0	B0 yoki B1
IIIA (eritrodermiya)	T4 (eritemaning tana yuzasining 80% dan ortiq qismida qo'shilishi)	N0-2	M0	B0
IIIB (eritrodermiya)	T4 (eritemaning tana yuzasining 80% dan ortiq qismida qo'shilishi)	N0-2	M0	B1
IVA (CC)	T1-4	N0-2	M0	B2
IVA(CC/non CC)	T1-4	N3	M0	B0 yoki B1 yoki B2
IVB (visseral kasallik)	T1-4	N0-3	M1	B0 yoki B1 yoki B2

- Tashhislash mezonlari:

- Gistologik va immunogistokimyoviy tadqiqotlar limfoma tashxisini verifikatsiyasi uchun juda muhimdir. O'sma jarayonining tarqalishini aniqlash va bemorlarni xavf guruhlariga ajratish uchun qo'shimcha usullar o'tkazish kerak [3].
- Tashxis jarrohlik yo'li bilan olib tashlangan (rezeksiya qilingan) limfa tugunini yoki ekstranodal shikastlanish joyini o'rganish asosida belgilanishi kerak, shu bilan birga material miqdori formalinda fiksatsiyalash va parafin bloklarini tayyorlash uchun yetarli bo'lishi kerak. Adekvat immunogistokimyoviy tadqiqotni o'tkazish majburiydir.
- T-hujayrali limfomalar uchun IGX paneli quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: CD20, CD3, CD10, BCL6, Ki-67, CD5, CD30, CD2, CD4, CD8, CD7, CD56, CD21, CD23, EBER-ISH, TCRP, TCR5, PD1/CD279, ALK, TP63 kappa/lambda oqava sitometriya usulida hujayra yuzasi markerlarini tahlili bilan yoki usiz, CD45, CD3, CD5, CD19, CD10, CD20, CD30, CD4, CD8, CD7, CD2; TCRaP, TCRyS [17].
- BTHL subtipini aniqlash uchun qo'shimcha immunogistokimyoviy tekshirish usullari, shu jumladan, T-folikulyar xelperlar kelib chiqish markerlari: CXCL13, ICOS, va sitotoksik T-hujayrali markerlar (TIA-1, granzyme-B, perforin) [17].
- Shikoyatlar, anamnez va fizik tekshiruv ma'lumotlari limfoproliferativ kasalliklarni tashxislash va differensial tashxislashda muhim rol o'ynaydi, ammo spetsifik emas va shuning uchun diagnostik mezonlarga kirmaydi [9].
- Tashxis biopsiya materialini morfologik va immunogistokimyoviy tekshirish asosida belgilanadi va JSSTning gematopoetik va limfoid to'qimalarning o'smalarining qayta ko'rib chiqilgan tasnifiga muvofiq shakllantiriladi [9].

2. Diagnostika va davolash usullari, yondashuvlari va tartiblari

1) Palliativ yordam ko'rsatish uchun kasalxonaga yotqizish ko'rsatmalari:

- Palliativ kimyoterapiya, target davolash, nur terapiya va davolash boshqa turlarini o'tkazish;

- Limfa tugunining/ekstranodal hosiladan birlamchi yoki takroriy biopsiyasini o‘tkazish yoki trepanobiopsiya;
- Ambulatoriya terapiyasi bilan tuzatilmagan asoratlarni davolash;
- Simptomatik davolash o‘tkazish.

2) Palliativ yordam ko‘rsatish uchun kasalxonaga yotqizish shart-sharoitlari:

- Palliativ kimyoterapiya, target davo, nur terapiya va davolash boshqa turlarini o‘tkazish muddatining kelishi;
- Hayot uchun xavf soluvchi xolatlarning bo‘lishi;

3. Diagnostik mezonlar (sindromning ishonchli belgilarining tavsifi):

1) Shikoyatlar va anamnez:

- Limfa tugunlarining kattalashishi (ko‘pincha og‘riqsiz);
- balg‘amsiz yo‘tal-ko‘ks oralig‘ining kattalashgan limfa tugunlari tomonidan nafas yo‘llarining siqilishi tufayli yuzaga keladi;
- yuz, bo‘yin, qo‘llarning shishishi - yuqori kovak venaning siqilishi tufayli yuzaga keladi;
- umumiy holsizlik, charchoqning kuchayishi;
- poykilodermiya (dog‘li pigmentatsiya, teleangioektaziyalar, teri atrofiyasi); alohida toshmalarning bir vaqtning o‘zida progressiyalanish va regressiyalanish fenomeni;
- bir nechta sohani egallagan ko‘plab toshmalar;
- toshmalarning terining quyosh nuri tushmaydigan sohalarida xarakterli joylashishi;
- toshmalar toshishi bilan keluvchi teri qichishishi;
- yuz o‘rta strukturalari bo‘lmish burun, og‘iz, burun-halqum, orbita bo‘shlig‘i sohalarida destruksiyalar (nazal tipdagi NK/T-hujayrali limfoma uchun hos).

2) Fizikal tekshirishlar:

- **B-simptomlar:** asosan kechqurun va tunda tana haroratining ko‘tarilishi; tana massasining kamayishi, ya‘ni ozish (tana vaznining avvalgi holatidan 10% va undan ortiq kamayishi)
- Toshmalarning soni va o‘lchamlari (dog‘lar va blyashkalarining mavjudligi BM bilan assotsiatsiyalanganlik belgisi bo‘lishi mumkin); toshmalarning eng ko‘p

joylashadigan joyi — qoʻl va oyoqlar. 25% holatlarda teri toshmalarining spontan regressiyasi kuzatiladi;

- Paypaslanuvchi limfa tugunlari va organomegaliyalarni aniqlanishi. Ular bitta yoki bir nechta tugundan iborat boʻlishi va yaralanishga moyil boʻlishi mumkin;
- Turli lokalizatsiyalardagi limfa tugunlarining kattalashishi;
- Jigar va taloq oʻlchamlarining kattalashishi.

3) Laborator tekshirishlar:

- Qon umumiy tahlili - surtmada leykoformula, trombositlarni hisoblash: UQT oddiy diapazonda boʻlishi mumkin, yoki oʻrtacha neytrofil leykotsitoz boʻlishi mumkin. ECHTning sezilarli oshishi koʻpincha qayd etiladi. Anemiya kam uchraydi va bu mustaqil salbiy prognostik belgi hisoblanadi.
- Qon biokimyoviy tahlili - oʻsma lizis sindromini, shuningdek, birga keladigan organlarning shikastlanishini aniqlash uchun laktat dehidrogenaza, umumiy oqsil, albumin, kreatinin, mochevina, elektrolitlar, siydik kislotasi.
- Gistologik tekshirish – LPKni morfologik shaklini verifikatsiya qilish uchun;
- Immunogistokimyoviy tekshirish – LPKni morfologik shaklini verifikatsiya qilish uchun.
- Oʻsma jarayonining tarqalishini (bosqichini) aniqlashning majburiy komponenti suyak iligi trepanobioptatining gistologik tekshiruvidir. Dastlabki tekshiruv vaqtida biopsiyani bilateral oʻtkazish tavsiya etiladi. Suyak koʻmigi birlamchi shikastlanganda trepanobiopsiyani restadiyalash paytida va terapiya oxirida bajarish kerak. Suyak iligi punktating morfologik tekshiruvi trepanobioptatning gistologik tekshiruvi oʻrnini bosmaydi. [9].
- Periferik qon IFT - Sezari sindromi uchun Sezari sindromiga xos boʻlgan immunofenotipli sirkulyatsiyadagi limfotsitlarni aniqlash majburiydir;

4) Instrumental tekshiruvlar:

- PET/KT – kasallikning boshlanishida jarayonni aniqroq bosqichlash, shuningdek davolanishga javobni adekvat baholash uchun, shu jumladan kasallikning qaytalanishiga shubha qilingan taqdirda, tumorotrop radiofarm preparat (RFP) bilan kompyuter tomografiya bilan birlashtirilgan pozitron emission tomografiyasi (PET/KT) zarur [3, 14-16].

- Kontrastli KT (qorin bo'shlig'i organlari, kichik chanoqni) – agar PET/KT ning iloji bo'lmasa, kasallikni bosqichini aniqlash va o'sma o'choqlari mavjudligi, hajmi va tarqalishini aniqlash uchun bo'yin, ko'krak, qorin organlari va kichik chanoq (kontrast bilan) KTsinini o'tkazish tavsiya etiladi [3].
- Periferik va qorin bo'shlig'i limfa tugunlarining ultratovush tekshiruvi - limfa tugunlari hajmining oshishi va tuzilishining o'zgarishini o'rganish.
- Bosh miya MRTsi – bosh miyani shikastlanishiga gumon bo'lganda bajariladi.


4. Palliativ tibbiy yordamning maqsadi:

- ✓ Og'riq va boshqa og'riqli alomatlarining oldini olish va yo'q qilish, bemorning azobini yengillashtirish;
- ✓ Saraton kasalligining rivojlanishini sekinlashtirish va bemorning umrini uzaytirish;
- ✓ Bemor hayoti farovonligini oshirish hayot sifatini yaxshilash;
- ✓ Psixologik, ijtimoiy, ma'naviy qo'llab-quvvatlash, psixosomatik tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- ✓ O'smaga qarshi davolashning nojo'ya ta'sirini yengish uchun;

5. Palliativ tibbiy yordam ko'rsatish taktikasi:

Nazal tipidagi **tarqalgan (III-IV) bosqich ekstranodal NK/T- hujayrali limfomalar** va barcha bosqichdagi ekstranazal tipdagi ekstranodal NK/T-hujayrali limfomalarda L-asparaginaza asosida kimyo terapiya tavsiya etiladi: AspMtxDex yoki SMILE, +/- NT 45-50 Gr remissiyani induksiyalash maqsadida [33].


3-sxema. Ekstranodal NK/T- hujayrali limfomaning initsial terapiya algoritmi.



*ПЭТ+ натижа кузатилганда, биопсия тавсия қилинади. Биопсия натижаси мусбат бўлса, 2-линия тавсия қилинади

- **Gepatosplenik (gepatoliyenal) T-hujayrali limfoma** - 5 yillik UYA darajasi 10% dan kam bo'lgan periferik T-hujayrali limfomalar orasida eng yomon prognozlardan biriga ega. SNOR GLTL uchun yetarli terapiya emas. [36]. GLTL bilan 60 yoshgacha bo'lgan bemorlarga ICE, IVAC (ifosfamid, sitarabin, etoposid) yoki yuqori dozali SNOYER/DA-EPOCH (etoposid, vinkristin, doksorubitsin, siklofosfamid va prednizolon) kabi intensiv rejimlar tavsiya etiladi [37]. Terapiyaning maqsadi - SKTdan oldin to'liq yoki qisman javobga erishishdir. SKT paytida bemorlarda o'sma yuki juda past bo'lishi kerak. SKTga imkon beradigan yetarli javobga erishish uchun to'liq kimyoterapiya kursi talab qilinmasligi mumkin.
- GITL uchun PET-skanerlash javobni baholash uchun yetarli emas. PET bo'yicha salbiy natija suyak iligi biopsiyasi va ba'zi hollarda jigar biopsiyasi bilan tasdiqlanishi kerak.
- GLTL nodal kasallik emas, va Lugano javob kriteriyasi uning uchun qo'llanilmaydi.
- Javobga erishgandan so'ng allogen SKTni amalga oshirish afzalroqdir, ammo donor bo'lmasa, avto SKTni o'tkazish tavsiya etiladi [38].

4-sxema. Gепатоспленик (gepatoliyenal) T-hujayrali limfomaning initsial terapiya algoritmi.



ZMning kechki bosqichlarini davolash [9].

- gistondeatsetilaz ingibitorlari(HDAC). Vorinostat peroral 400 mg har kuni buyuriladi. Davolash to‘liq nazorat o‘rnatilguncha (keyingi progressiyalanish belgilari yo‘qolguncha) yoki chidab bo‘lmas toksiklik belgilari paydo bo‘lguncha davom ettiriladi.
- elektron-nur terapiya ZM/SSning jadu ham samarali davolash usuli bo‘lib, ham erta, ham kechki bosqichlarda, ham birinchi liniyada, ham kasallikning retsidiv/progressiya holatlarida qo‘llanilishi mumkin.
- siklofosfamid yoki gemitabin monoterapiyasi yoki nodulyar limfomalarni davolash uchun ishlatiladigan sxemalar: CHOP, EPOCH, CMED/ABV, fludarabin +IFN-a tizimli kimyoterapiya sifatida ishlatilishi mumkin (30)

Sezari sindromi [9].

Terapiyani tayinlashda ZMni davolashda asos bo‘lgan bir xil prinsiplarga amal qilish tavsiya etiladi:

- Davolash yondashuvlari o‘smaning massasi va progressiya tezligi bilan belgilanadi.
- Iloji boricha immunitet reaksiyasini bostirishdan saqlanish kerak.

- Agar tizimli davolanish zarur bo'lsa, kimyoterapiyadan ko'ra immunomodulyatsion terapiyani buyurish afzaldir.
- Kombinatsiyalangan yoki multimodal (masalan, tizimli va tashqi immunomodulyatsion terapiyakombinatsiya).
- Infektsion asoratlarni o'z vaqtida tashxirlash va davolash (ba'zida terida yuqumli jarayonning klinik belgilari bo'lmasa ham) bemorning ahvolini yaxshilashga olib keladi.
- qichishish hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi va uni davolash katta ahamiyatga ega.

9 - jadval. 60 yoshgacha bo'lgan SS bemorlarini initsial terapiya algoritmi



BTHLning retsidivlari/refrakter kechishini davolash:

- Nodal BTHL bilan og'riqan bemorlarning katta qismi kimyoterapiyaga sezgir bo'lishiga qaramay, ularning javob vaqti qisqa va retsidivlar tez-tez sodir bo'ladi.
- Retsidiv yoki refrakter BTHL ni davolash to'g'risida qaror qabul qilishda, avvalo, bemor allogene gemapoetik o'zak hujayralar transplantatsiyasiga nomzodmi degan savolga javob olish kerak. Bunday bemorlar uchun Milliy keng qamrovli saraton tarmog'i qutqaruv terapiyasi sifatida kombinatsiyalangan kimyoterapiya yoki mono-rejimli dori-darmonlarni tavsiya qiladi. Transplantatsiyaga nomzod bo'lmagan bemorlarga minimal toksiklik bilan palliativ terapiya beriladi.
- BTHL uchun kombinatsiyalangan kimyoterapiya sxemalari ICE, DROP, DEAD va ESHAP kabi limfomalar uchun standart davolash rejimlarini o'z ichiga oladi [40-44].

Gemsitabinga asoslangan rejimlar ham faollikni ko'rsatdi, shu jumladan GDP, GemOx [45-48].

- CD30 + AKL dan tashqari, retsividli/refrakter BTHL uchun terapiya standarti ishlab chiqilmagan. Qutqaruv terapiyasi sifatida ishlatiladigan dunyo miqyosda tasdiqlangan yagona dori bu anti-CD30 antitana konyugati brentuksimab vedotin (BV) dir. II bosqichning asosiy tadqiqotida nodam AYHL bilan jiddiy davolangan bemorlarda brentuksimab-vedotin monoterapiyasi 86% QOJ (66% to'liq va 20% qisman javoblar), to'liq javob darajasi 57% ni tashkil etdi, o'rtacha javob vaqti 12,6 oy [49].
- CD30 ekspressiyali AYHLning retsividlari yoki refrakter shakllari bo'lgan bemorlarga brentuksimab vedotin bilan mono rejimda yoki retsividlarini davolash uchun kimyoviy terapiya rejimi bilan birgalikda davolanish tavsiya etiladi [49,50].

SKTga nomzod AYHL uchun ikkinchi liniya terapiyasi	SKTga nomzod bo'lmagan AYHL uchun ikkinchi liniya terapiyasi
Maqsadga muvofiq hisoblanadi: Brentuksimab-vedotin	Maqsadga muvofiq hisoblanadi: Brentuksimab-vedotin
Mono rejimda qo'llaniluvchi boshqa rejimlar: Bendamustin Belinostat Krizotinib Pralatreksat	Mono rejimda qo'llaniluvchi boshqa rejimlar: Bendamustin Belinostat Krizotinib Pralatreksat Gemsitabin
Kombinirlangan ximioterapiya: DHAP DHAX ESHAP GDP GemOx ICE	Nur terapiya

- ALK-pozitiv AYHL refrakter/retsividlanuvchi shaklida barcha liniya terapiyasi o'tkazilgandan so'ng, alternativa sifatida ALK selektiv ingibitori – Krizotinibni qo'llash mumkin. Uni progressiyagacha alternativ davo sifatida qo'llash mumkin [51].

SKTga nomzod bo'lgan BTHLn, EATHL, METL, AIBL, FTHL uchun terapiyaning ikkinchi liniyasi	SKTga nomzod bo'lmagan BTHLn, EATHL, METL, AIBL, FTHL uchun terapiyaning ikkinchi liniyasi
Maqsadga muvofiq hisoblanadi: Brentuksimab-vedotin Belinostat Pralatreksat1	Maqsadga muvofiq hisoblanadi: Brentuksimab-vedotin Belinostat Pralatreksat
Kombinirlangan ximioterapiya: DHAP DHAX ESHAP GDP GemOx ICE	Mono rejimda qo'llaniluvchi boshqa preparatlar: Bendamustin Gemsitabin Siklofosfamid ili etopozid Lenalidomid
Mono rejimda qo'llaniluvchi boshqa preparatlar: Bendamustin Gemsitabin Lenalidomid	Nur terapiya

¹AIBLda chegaralangan faollikka ega va maqsadga muvofiq hisoblanmaydi

FDA tomonidan tasdiqlangan preparatlar bilan davolanganda umumiy yashovchanlik ko'rsatkichlari (%)

Preparat nomi	BTHLn	AYHL	AIBL
Pralatreksat (PROPEL study) [52]	31	29 PSYA medianasi 3,5 oy	8
Belinostat (BELIEF study) [53]	23	15 PSYA medianasi 7,9 oy	46
Bendamustin (BENTLY trial) [54]	41 PSYA medianasi 3,6 oy	50 PSYA medianasi 3,5 oy	69
Lenalidomid (EXPECT study) [55]	33	40 PSYA medianasi 4,0 oy	29
Brentuksimab- vedotin [49]	25 PSYA medianasi 2,6 oy	85	50

